

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

XOLMIRZAYEVA GULSHONA

MAVZU: O`ZBEK TILIDA SAVODXONLIK MUAMMOSI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ANDIJON – 2014

Kirish.....	3
1. Savodxonlik va uning me'yorlari	
1.1. Savodxonlik va uning mohiyati.....	8
1.2. Savodxonlikning xalqaro mezonlari.....	14
1.3. Savodxonlikning O'zbekistondagi mezonlari.....	23
2. Istiqlol yillarida til siyosati	
2.1. O'zbekistonda ona tili ta'limidagi islohotlar.....	38
2.2. Savodxonlikni pasaytiruvchi omillar.....	45
2.3. Tahlil.....	58
Umumiy xulosa	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday demokratik davlatning rivojlanishdan asosiy maqsadi – inson manfaatlaridir. Jamiyat taraqqiyoti esa nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining kattaligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilgani bilan ham o'lchanadi. Chunki ilmiy salohiyat insonning qanchalik kuchga ega ekaniga bugungi kunda jamiyatimizning taraqqiyotini yaqqol misol keltirishimiz mumkin. Mustaqilligimizga endigina 23 yil bo'lgan bo'lsada O'zbekiston o'zining jahon maydonidagi o'rniga dadil qadam qo'ya oldi. Eng avvalo, respublikamizda ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Chunki muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganidek, yuqori malakali, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo'lishi, demokratik va tub o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'lishi mumkin. Shunday ekan, mamlakat aholisi savodxonligini oshirish va yoshlarimizni yetuk va malakali qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb maqsadlaridan biri.

Tadqiqot obyekti va uning o'rganilishi. Tadqiqot ishining o'rganish obyekti o'zbek tilidagi savodxonlikning bugungi kundagi darajasi, savodxonlikka ta'sir etuvchi omillar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasida savodxonlik darajasini bugungi kundagi ko'rsatkichini tahlil qilish, shundan kelib chiqib o'sib kelayotgan yosh avlodning savodxonlik darajasini ko'tarish uchun qo'yilishi kerak bo'lgan maqsad va vazifalarni belgilash. Bu boradagi taklif va mulohazalarni yechimini topishdir.

Ko'rsatilgan maqsadlar ilmiy izlanishni samarali o'tkazish uchun xizmat qiladi va tadqiqot ishning asosiy matnida o'z aksini topgan quydagi vazifalarni ijobiy hal etishni belgilab beradi:

- Tilshunoslik va sotsiologiya fanlarining o'zaro aloqasi.
- Tilshunoslik va sotsiologiya fanlarida savodxonlik tushunchasi.
- Dunyo mamlakatlarining savodxonlik darajasi va O'zbekiston Respublikasining savodxonlik darajasining o'zaro qiyosi
- Savodxonlik me'yorlari. Bugungi kun uchun, savodxon shaxs deyish uchun qanday bilimlar ega bo'lishi kerak.
- Bugungi kundagi savodxonlik darajasini Respublikamizning qisqa muddat ichida ta'lim va tarbiyaga qaratgan e'tiborining samarasi sifatida ko'rishimiz mumkin.
- Ona tili ta'limi maqsadi va undan ko'zlangan natijalar.
- Savodxonlikning bugungi kundagi muammoli tomonlari.

- Savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora tadbirlar va ularning amaliyoti haqida.
- Savodxonlikni oshirishga qaratilgan islohotlar va ularning samarasi.
- Yozuv islohoti va undan ko'zlangan natijalar.
- Funktsional savodxonlik va uning bugungi kunidagi tarqqiyoti.
- Imlo qoidalari va uning savodxonlikka ta'siri.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy nazariy xulosalar, tahlil va talqin natijasi bo'lgan fikr-mulohazalardan sotsiolingvistika fanini rivojlantirishga hamda savodxonlikni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi va takliflar. Ilmiy ishdan ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quydagi takliflarni kiritib o'tmoqchiman. Chunki savodxonlikni oshirishga qaratilgan har bir harakat o'zining natijasini berishi kerak.

Lug'at diktanlaridan samarali foydalanish. Ya'ni har bir ona tili darslari uchun lug'at diktantlari davlat dasturi asosida kiritilishi kerak. Chunki lug'at diktantni har darsda takrorlash o'quvchida bilmagan so'zlarning imlosini va ma'nosini bilishni, bilgan so'zlari esa ko'nikma va malaka sifatida ularning xotiralariga muhrlanadi. Lug'at diktantning afzalliklari:

- a) O'quvchilarning yoshidan kelib chiqib va bilim salohiyatini hisobga olgan holda qo'llash mumkinligi.
- b) Darsda o'tiladigan nazariy bilimlarga asoslanib lug'at so'zlarni tanlash va bu so'zlarga bog'lab mavzuni tushuntirishi mumkinligi.
- c) Barcha o'quvchini qamrab olishi.
- d) Vaqt hisobidan ham oz vatq talab qilinishi.

Boshlang'ich ta'lim, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarida ham maktabgacha ta'lim bosqichi kabi yoshlarning **so'z boyligining ma'lum miqdoriy belgisini qo'yish** kerak. Buning me'yoriy talabi o'quvchilarning o'zlari foydalanayotgan darsliklar asosida aniqlanadi. Shunda ta'lim oluvchilarning og'zaki nutqi va so'zlardan foydalanish malakasi oshadi. Og'zaki nutq shunda ravon bo'ladi.

Darsliklardagi ayrim mashqlarni qaytadan ko'rib chiqish kerak. Chunki mashqlarda **o'quvchilarning aktiv lug'atidagi so'zlardan ko'proq foydalanish** kerak. 5-6-sinf darsliklarida ko'rgazmalilikdan unumli foydalanilsa bo'ladi. O'quvchilar bunday paytda tasavvur qilib eslab qolish qobiliyatlari yuqori darajada bo'ladi.

Til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish – kommunikativ savodxonlik garovi. Ona tili materiallarini o'zaro bog'lab o'rganish, yiriklashtirish, kuzatish, taqqoslash, guruhlariga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga turli xil til xodisalari mohiyatini chuqurroq

o'rganishga, nutqda so'zni o'rnida ishlatish ko'nikmalarini chuqurlashtirishga ijobiy ta'sir etadi. Ona tili o'qitishda oldingi o'rganilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali qoida, ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir – biriga o'xshash va farqli xodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Ona tili izchil kursida fonetika, leksikologiya, o'zaro bog'liq holda bir yaxlitlikni tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilganlarga suyangan holda so'zning umumiy tahlilini o'tkazish o'quvchini mustaqil, ijodiy fikrlashga, ixcham, lo'nda va aniq chiqarishga, har bir tovush va so'zdan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Grammatik tahlildan namuna.

Birinchi ish. «Viloyat» so'zining fonetik tahlili.

Ikkinchi ish. Viloyat – ot, turdosh, aniq, bosh kelishik, birlikda.

Uchinchi ish. Yuqoridagi so'zga ma'nodosh va uyadoshlar topish.

Undoshlar: viloyat - hudud, tuman, mavzu, mahalla, ko'cha va h.k.

To'rtinchi ish. Topilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilish: Sirdaryo viloyati Mirzacho'l hududida joylashgan.

Birinchi ish fonetik tahlilga bag'ishlangan bo'lib, unda so'zdagi tovush – harflar tasnifi, ochiq va yopiq bo'g'inlar, harf va tovushlar soni aniqlanadi, bo'g'inlarga ajratiladi va sanaladi.

Yuqoridagi ishlar bajarilgan, mazkur so'z morofologik tahlil qilinadi; so'zning lug'aviy ma'nosini aniqlash maqsadida uning ma'nodoshlari va uyadoshlari topiladi; ular ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilinadi. So'zning bunday umumiy tahlili o'quvchining tildan egallangan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, qolaversa, o'quvchi bilim darajasini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Lekin grammatik tahlilning o'zi DTS talablarida ko'rsatilgan barcha talablarni amalga oshirish uchun kifoya qilmaydi.

Tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish tahlilni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Erkin, ravon fikrlashni o'rganishda so'z qoliplari ustida ishlashning imkoniyatlari ham benihoya keng.

Turli iboralar ma'nosini, so'z etimologiyasini bilish yoshlar uchun o'ta qiziqarli. O'zbek tili tarixi, uning tili, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va ma'no nozikliklari hosil qilishi, grammatik qurilishning takomillashib borishi kabi hodisalarni o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish yaxshi samara beradi.

- «qildan qiyiq axtarmoq» – yomon niyat bilan aybi yo'q inson faoliyatidan ayb topmoq; ma'nodoshi «tirnoq orasidan kir izlamoq».

- «Bag'ri tosh» - bemehr, iltifotsiz; ma'nodoshi: «tosh yurak», «ko'ngli qattiq».

- «Bahri – dili ochildi» - kayfiyati yaxshilandi; ma'nodoshi: «dimog'i chog' bo'ldi», «ko'ngli ochildi» va h.k.

Fanlararo bog'lanish turli ta'lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o'quv topshiriqlari tizimida) ko'proq o'z yechimini topishi darkor.

Aniq va ijtimoiy – gumanitar fanlardan matnlar tanlash, atama, so'z va ko'chma ma'noli so'z, so'z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilarni tanlash, ular ishtirokida gap va matnlar qurish, so'z ma'nolarini konspekt ichida farqlashni singdirish, o'quvchining fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob va har bir bob uch fasl hamda umumiy xulosa qismidan iborat. Bitiruv malakaviy ish sahifadan iborat. Umumiy xulosa qismidan so'ng foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati ilova qilingan.

1. SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING ME'YORLARI

1.1. Savodxonlik tushunchasi va uning mohiyati

Savodxonlik tushunchasi qanday ma'no-mohiyatni o'zida jam qilgan, eng avvalo shu savolga javob berishimiz lozim. Savodxonlikka shu kungacha berilgan ta'riflar bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Milliy ensiklopediyada quydagicha ta'riflanadi. Savodlilik, savodxonlik- 1) aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri.

2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligi.

3) oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egaligi.

4) muayyan soha bo'yicha bilimga egalik(siyosiy savodxonlik, texnik savodxonlik)

Izohli lug'atda esa savodxonlikning uch xil ma'nosi berib o'tilgan. Savod –

1) o'qish yozishdan xabardorlik, xat-savod.

2) biror sohadagi eng zaruriy ma'lumot.

3) umuman, bilim, tushuncha, tajriba

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rib turibmizki savodxonlikka berilgan ta'riflar mazmunan bir xil. Savodxonlik tushunchasiga yanada to'liq ta'rif berish uchun uning etimologiyasiga murojaat qilishimiz kerak. “Savodxonlik” so'zi arabcha “_____” so'zidan olingan bo'lib, oqni qora qilish degan ma'noni anglatadi. Ya'ni biror insonni qo'liga oq qog'ozni bersa uni qoraytira(yoza) olish demakdir.

Endi esa boshqa tillardagi savodxonlik so'zining lug'aviy ma'nosini ham taqqoslab o'tamiz. Masalan, rus tilida savodxonlik so'zi “грамотности” so'zi bilan ifodalanadi. Грамотности so'zining etimologiyasi грамотности ya'ni, grekcha “grammatike” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qish va yozish san'ati degan ma'noni bildiradi.

Ingiliz tilida esa savodxonlik tushunchasini “ Literacy” so'zi anglatadi. Literacy “Letter” so'zidan olingan bo'lib harf degan ma'noni anglatadi. Harf tanigan insonga nisbatan savodxon so'zi ishlatilgan.

Savodxonlik tushunchasining mazmun mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi, siyosiy qarashlarning noxolisligi va milliy kamsitish ruhidagi yondashuvlar biror mamalakat yoki millat savodxonlik darajasini belgilashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, chor Rossiyasida chiqadigan "Bestnik vospitaniya" jurnalida 1900-yilda Turkiston o'lkasi nihoyatda qoloq hamda mutloqo savodsiz elatlardan iborat va ularni savodli qilish uchun kamida 4600 yil kerak degan g'irt sohta xulosani yozgan. Sho'ro davridgi barcha ilmiy manbalarda esa, 1917-yil oktabr to'ntarilishiga qadar O'zbekiston aholisining 1,5-2% gina savodli degan yolg'ondan iborat ma'lumotlarni ko'rsatdilar. Holbuki, 1897-yildagi aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya markazi aholisining savodxonlik darajasi 21%ga Turkiston o'lkasi xalqining savodxonlik darajasi esa 19,5% ga tengligi qayd etilgan. So'ngi davrda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan, ammo hali ham unchalik to'la bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra 1913-yil Turkiston o'lkasida 7665 maktab va madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bu raqam o'lkamiz aholisining savodxonlik darajasi rasmiy ma'lumotlarda qayd etilganiga qaraganda ancha baland bo'lganligini ko'rsatadi. Sho'ro hukumati o'z siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib aholisining savodxonlik darajasini yuksaltirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdi. 1919-yil 26-dekabrda RSFSR XKS tomonidan chiqarilgan Dekretida 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan o'qishni bilmaydigan har bir odam o'z xohishi bilan ona tili yoki rus tilida savod chiqarishi lozimligini belgilab qo'yildi. Bu tadbir aholining savodxonlik darajasini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda sezdirmay amalga oshirila boshlagan ruslashtirish siyosatining ko'rinishi ham bo'ldi. 1920-yilda mamlakat Maorif xalq kommissarligi qoshida savodsizlikni tugatish kommissiyasi tuzildi. Mamlakatdagi barcha viloyat, shahar va tumanlarda bu komissiya sho'balari vujudga keltirilib, savod chiqarish maktablari hamda kurslar tashkil etish bilan shug'illanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng aholining savodxonlik darajasini yuksaltirishga e'tibor qaratiladi. Chunki jamiyat a'zolarining savodxonlik darajasi mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligini anglab yetildi. Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi (1997-yil) munosabati bilan majburiy ta'lim muddati bir yilga uzaytirildi. Eng muhimi ta'limning mazmuni, uni tashkil etish yo'li, ta'lim mohiyatini belgilash borasidagi yangi konsepsiyaga amal qilina boshlandi. Milliy istiqlool g'oyasini singdirish umumdavlat ahamiyatiga ega tadbir sifatida qaraladigan bo'lishi bilan savodxonlikning ahamiyati ham sezilarli darajada ortdi. Mamlakatimizda ta'lim tizimi shunday uyishtirilganki, biror sog'lom kishi o'qishdan chetda qolmaydi. Savodxonlik tushunchasi turli joylarda turlicha belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda oddiy matnlarni o'qishni bilgan odam

savodli hisoblangan bo'lsa ba'zi yurtlarda o'qish bilan birga yozishni ham bilgan odam savodli hisoblangan. Shuning uchun ham "Savodxonlik" tushunchasi mohiyatini tayin etish masalasi demografik statistika va aholi ro'yhati dasturlariga doir xalqaro yig'ilishlarda bir necha bor ko'rib chiqilgan. YUNESKO ning 1958-yil Parijda bo'lib o'tgan 10-sessiyasida barcha mamlakatlarda savodxonlik tushunchasini bir xillashtirish maqsadida yozuvni tushinib o'qiy oladigan va o'zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan. Demak, berilgan fikrlarni umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, savodxonlik deb ***"Insonlarning hayotiy zarur bilimlarga ega bo'lishi va ularni og'zaki va yozma nutq orqali bayon eta olish malakasi"*** ga aytiladi.

Ilm-fan tinimsiz rivojlanayotgan, axborot tehnologiyasi takomillashib, inson tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda ham savodxonlik darajasi dunyo miqyosida u qadar yuqori emas. YUNESKO ning tegishli tizimlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez ko'payishi, bolalarning ta'lim tizimiga to'liq jalb etilmasligi sababli savodxonlik pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Hatto yusak darajada rivojlangan mamlakatlarda ham savodsiz kishilar miqdori aholi qatlamining kattagina foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1966-yil YUNESKO ning bosh anjumanida 8-sentabr Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo'yildi. ¹

Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganish turli davrlarda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, bu sohadagi ilmiy qiziqishlar bugungi kunga kelib anada kuchayib bormoqda.

Tildagi elementlar doimo o'zgarishga moyil bo'lishi bilan birga qat'iy harakterga ham egadir. Muayan tilga ushbu tilda so'zlovchi har bir kishi doimiy ravishda ta'sir ko'rsatib turadi. Bu ta'sir albatta leksik va grammatik shakllarda bo'lmasa-da, tilning nutqiy foydalanish darajasida mavjudir. Demak til bir tomondan ijodiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan u allaqachon vujudga kelgan qat'iy tizim hamdir.

Ushbu munosabatlardan biz til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqa qanchalik chambarchas bog'lik ekanligini ko'ramiz. Albatta, til ham jamiyat ham ma'lum fanlar uchun predmet hisoblanadi. Tilshunoslik yoki lingivistika tilga doir narsalarni o'rgansa, sotsiologiya

¹ Karimov I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

fani uchun jamiyat va unga aloqador tomonlarning barchasi uchun eng muhim tadqiqot obyektidir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan umumiy fanlarning turli tarmoqlariga tezkor suratda bo'linib ketishi ixtisoslashuvning kuchayib ketishi bilan yangi tadqiqot sohalari vujudga kela boshladi.

XX asr boshlariga kelib til va jamiyat munosabatini alohida o'rganishga bo'lgan qiziqish turli oqimlarni vujudga keltirdi. Xususan, shu davrda tilga faqat ishtimoiy fakt, ijtimoiy mahsulot deb qaraydigan kishilar ham topildi. Til haqidagi bunday fikrlarni umumlashtirgan shaxs Ferdinand de Sossyur (1857-1913) dir.

XX asrning 20-30 yillari til mavjudligining ijtimoiy zaruriyat ekanligini isbotlash davri bo'lsa, faqatgina 60- yillarga kelib til va jamiyat aloqasi to'g'risidagi fan- sotsiolingivistika fanini fan sifatida o'rganish va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishga bo'lgan qiziqishi ortdi.

Bugungi kunga kelib sotsiolingivistika fani o'zining predmetiga ega bo'lishi bilan yaxlit fan sifatida shakllandi, deyish mumkin. Shunday bo'lsa-da, sotsiolingivistika fanida ko'pgina muammolar xaligacha o'z yechimini topgani yo'q. Bu fanning mintaqaviy taraqqiyotiga nazar tashlasak, u AQSh da ancha keng o'rganilganini shohidi bo'lamiz. Sotsiolingivistik tadqiqotlarni turli mamlakatlarda xilma-xil yo'nalishlarda amalga oshirilishi bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqarishi bilan birga, bir-birini to'ldiradi xam shuni xam yodda tutish zaruruki turli mamlakatlarda sotsiolingivistika muammolarni yondashuvlar va qiziqishlar darajasi ham turlichadir.

Sotsiolingivistika muammolari taxlil qilishdan avval sotsiolingivistika fani predmeti va uning tuzilishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy sotsiolingivistikaning xususiyatlarida biri shundaki, u tilshunoslik va sotsiologiyaga xos bo'limlarning mexanik bog'lanishi bo'lib qolmasdan, ularning yagona nazariya, yagona obyekt tushunchasi va tadqiqot maqsadlari yagona tushunchalar tizimi va tadqiqot jarayoning birligi hamdir. Gap shundaki, til taraqqiyoti va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar tilshunoslik sohasidagi ko'pgina maktablarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.² Tilning jamiyat hayotidagi o'rni, uning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri sotsiologlar, etnograflar kabi soha vakillari uchun tadqiqot manbaidir. Demak, sotsiologiya hamda tilshunoslikning jamiyat va til, shuningdek, til va jamiyat o'rtasidagi aloqaga doir bo'limlari uchun tadqiqot predmeti va tushunchalar tizimi bir xilligi sotsiolingivistikaning fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

² А.Д. Швейцер. Современная социоллингвистика, теория, проблемы, методы. – М, 1976.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, savodxonlik jamiyat bilan o'zaro bog'liq. Jamiyatdagi insonlar o'zlarining salohiyati bilan jamiyat savodxonlik darajasini belgilaydilar. Bundan ko'rinib turibdiki jamiyat va lingvistika uzviy ravishda bog'lanadi. Bugungi kunda bunday bog'liqlikni o'rganuvchi tilshunoslikdagi yangi soha sotsiolingvistika hisoblanadi. Bugungi kundagi sotsiolingvistikaning oldida turgan eng katta muammolardan biri bu aholi savodxonligini oshirish. Aholi savodxonligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar mamlakatimizda uzluksiz amalga oshirilmoqda. Mustaqillika erishganimizdan keyingi yillarda o'tkazilgan bir qator islohotlar davlatimiz fuqrolarining savodxonlik darajasini yaxshilashga qaratilgan. Ayniqsa, ona tili ta'limida savodxonlik bosh masala sifatida qarala boshlandi. Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqib belgilab beriladi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil firlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yildi.³ Bundan ko'rinib turibdiki, ona tili ta'limining maqsad va mazmuni ham o'quvchining savodxonligiga qaratilgan. Yoki ona tili ta'limida o'quvchilarning egallagan bilimlari uch parametrdan tekshiriladi. Uch parameter ham savodxonlik me'yorlaridan kelib chiqqan. Masalan, birinchi parameter o'qish texnikasi. Bu parametrdan o'quvchining o'qish tezligi, ya'ni noma'lum matnni o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi.

Ikkinchi parametr o'zgalar fikrini va matnni mazmunini anglash malakasi. Bunda o'quvchining anglay olish malakasi aniqlanadi. Matnni yoki o'zgalar fikrini mazmunan tahlil qila olish va uni yozma yoki og'zaki nutqda bayon qila olish darjasini aniqlaydi.

Uchinchi parameter fikrni yozma bayon etish malakasi. Bu parametrni DTS da keltirilgandek aytmoqchiman. Ya'ni (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parameter bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- a) Fikrni mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- b) Fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi(sodda, murakkab, aniq, mavhum va hakazo);

³ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi . Toshkent 2010

- c) Tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati;
- d) Tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- e) Imloviy(yozma) savodxonlikning sifati.

Dasturdagi bosh masala ham o'quvchilar savodxonligini oshirishga qaratilgan. Ona tili dasturi ona tilidan o'quvchilarga beriladigan bilimlar hajmini va mazmunini belgilab beruvchi davlat hujjati hisoblanib. Dastur ona tili materiallarini sinflar(asosan, 1-4 va 5-9- sinflar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari) bo'yicha bir tartibda, til bo'limlari orasidagi bog'lanishni alohida hisobga olgan holda , taqsimlab beradi, bu, o'z navbatida, tildan o'quvchilarga 1-sinf dan 9-sinf gacha beriladigan nazariy materiallarni bayon etish va nutq madaniyatini, orfografiya hamda punktuastiya malakalarini shakllantirishda ma'lum bir sistemani va izchillikni ta'min etadi.

1.2. Savodxonlikning xalqaro mezonlari

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek savodxonlik me'yorlari turli davlatlarda turlicha. Lekin shuni aniq ayta olamizki, dunyo davlatlarining savodxonlik masalasidagi eng asosiy tamoyil bu og'zaki va yozma nutq bilan belgilanadi. Bu mezonlar savodxonlikning "Umumiy savodxonlik" tushunchasini qamrab olsa. Yana bir qator mezonlar borki, bular zamon taraqqiyoti natijasi va insonlarning ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Bunday savodxonlikni biz "Funksional savodxonlik" deymiz. Funksional savodxonlikka quydagi mezonlarni kiritishimiz mumkin:

- a) O'qiy olish layoqati ya'ni, harf tanish
- b) Yoza olish layoqati
- c) Telefondan foydalana olish
- d) Katologdan foydalana olish
- e) Kompyuterdan foydalana olish
- f) Til bilish (ona tilidan tashqari o'zga tilni bilish)
- g) Elektron pochtdan foydalana olish
- h) Internetdan foydalana olish layoqi
- i) Maxsus belgilarni tushuna olish (masalan, yo'l belgilarini, iste'mol mahsulotlaridagi maxsus belgilarni, va h.k)

Dunyo davlatlarining savodxonlik darajasi YUNESKO tomonidan tahlil qilinib boradi. Ularning yildan yilga savodxonlik darajasining o'sishi va kamayishini foizlarda ko'rsatib beradi. Jahon mamlakatlarining savodxonlik darajasining bugungi ko'rsatkichiga turli sabablarni ko'rsatish mumkin. Masalan, Polsha davlati savodxonlik darajasi bo'yicha BMT davlatlari reytingi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Chunki Polsha davlatida ham ta'lim tizimiga alohida

e'tibor qaratiladi. 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'qishlari majburiy. Maktabning barcha pog'onalari davlat ta'minotida. Hunar texnika maktabi (1-4-sinflar) boshlang'ich va muntazam (4-10-sinflar) ta'limini o'z ichiga oladi. BMT reytingida past ko'rsatkichga ega davlatlardan biri bu Singapur, u 44-o'rinda turadi. Uning ta'lim tizimi 6-14 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'qishi majburiy. Boshlang'ich maktabda o'qish muddati 6 yil, o'rta maktabda 6 yil. Maktablarning bir qismi davlatga qarashli, qolgan qismi hususiy. Davlat o'rta maktablarida pul to'lab o'qiladi. Ikki davlatning ta'lim sohasini qiyoslab o'zimiz xulosa chiqarishimiz mumkin. Savodxonlikni oshirish uchun to'g'ri yo'lni tanlashi kerak. O'zbekiston esa ta'lim sohasida ham tajribadan sinalgan va milliy mafaatlrimizga mos keladigan usullarni tanlab oldi. Qisqa muddat ichida esa savodxonlik darajasining yuqori darajada ekanligini isbotlab bera oldi. Bugungi kunda buni dunyo davlatlar tan olmoqda. Quydagi jadval orqali BMT ga a'zo davlatlarning YUNESKO tomonidan savodxonlik darajasi asosida reyting o'rni ko'rishimiz mumkin.

T/r	Davlat nomi	Umumiy aholi ko'rsatkichi (%)	Ayolllar savodxonligi (%)	Erkaklar savodxonligi (%)	O'rni
1	Andorra	100	100	100	1
2	Vatikan	100	100	100	1
3	Grenlandiya	100	100	100	1
4	Gruziya	100	100	100	1
5	Lixtenshteyn	100	100	100	1
6	Lyuksemburg	100	100	100	1
7	Norvegiya	100	100	100	1
8	Finlandiya	100	100	100	1
9	Polsha	99,8	99,7	99,8	2
10	Kuba	99,8	99,8	99,8	2
11	Estoniya	99,8	99,8	99,8	2
12	Sloveniya	99,7	99,6	99,7	3
13	Samoa	99,7	99,7	99,6	3
14	Latviya	99,7	99,7	99,8	3
15	Barbados	99,7	99,7	99,7	3
16	Slovakiya	99,6	99,6	99,7	4
17	Litva	99,6	99,6	99,6	4

18	Belorusiya	99,6	99,4	99,8	4
19	Qozog'izton	99,5	99,3	99,8	5
20	Tojikiston	99,5	99,2	99,7	5
21	Ukraina	99,4	99,2	99,7	6
22	Rossiya	99,4	99,2	99,7	6
23	Vengirya	99,4	99,3	99,5	6
24	Armaniston	99,4	99,2	99,7	6
25	O'zbekiston	99,3	99	99,6	7
26	Moldava	99,1	98,6	99,7	8
27	Avstraliya	99	99	99	9
28	Buyuk Britaniya	99	99	99	9
29	Germaniya	99	99	99	9
30	Guam	99	99	99	9
31	Daniya	99	99	99	9
32	Irlandiya	99	99	99	9
33	Islandiya	99	99	99	9
34	Kanada	99	99	99	9
35	Monako	99	99	99	9
36	Niderlandiya	99	99	99	9
37	Yangi Zelandiya	99	99	99	9
38	Shimoliy Koreya	99	99	99	9
39	Sen-Peri Mikelon	99	99	99	9
40	AQSH	99	99	99	9
41	Fransiya	99	99	99	9
42	Chechiniston	99	99	99	9
43	Shvetsariya	99	99	99	9
44	Shvetsiya	99	99	99	9
45	Yaponiya	99	99	99	9
46	Belgiya	99	99	99	9
47	Tonga	98,9	99	98,8	10
48	Ozarbayjon	98,8	98,2	99,5	11
49	Gayana	98,8	98,5	99,1	11
50	Turkmaniston	98,8	98,3	99,3	11
51	Qirg'iziston	98,7	98,1	99,3	12

52	Albaniya	98,7	98,3	99,2	12
53	Trinidad Tabayo	98,6	98	99,1	13
54	Italiya	98,4	98	98,8	14
55	Bolgariya	98,2	97,7	98,7	15
56	Xorvatiya	98,1	97,1	99,3	16
57	Kaymono	98	98	98	17
58	Polineziya	98	98	98	17
59	Urugvay	98	98,4	97,6	17
60	Tyorskiy kaykos	98	98	99	17
61	Bermud	98	98	98	17
62	Avstrya	98	98	98	17
63	Janubiy Korea	97,9	96,2	99,2	18
64	Ispaniya	97,9	97,2	98,7	18
65	Virgeniya	97,8	97,8	97,8	19
66	Mo'g'uliston	97,8	97,5	98	19
67	Sent-kits nevis	97,8	97,8	97,8	19
68	Kipr	97,6	96,3	98,9	20
69	Aruba	97,3	97,1	97,5	21
70	Ruminya	97,3	96,3	98,4	21
71	Argentina	97,2	97,2	97,2	22
72	Izroil	97,1	95,9	98,5	23
73	Svyataya Yelena	97	98	97	24
74	Shimoliy Mariana	97	96	97	24
75	Montserrat	97	97	97	24
76	Amerika Samoa	97	97	97	24
77	Bosniya Gersogavina	96,7	94,4	99	25
78	Antili (niderland)	96,7	96,8	96,7	25
79	Serbiya	96,4	94,1	98,9	26
80	Maldiva	96,3	96,4	96,2	27
81	Yangi Kaledoniya	96,2	95,5	96,8	28
82	Makedoniya	96,1	94,1	98,2	29
83	Tayvan (Xitoy)	96,1	96,1	96,1	29
84	Gerenada	96	96	96	30
85	Gretsiya	96	94,2	97,8	30

86	San-marino sent vinsent	96	95	97	30
87	Chili	95,7	95,6	95,8	31
88	Bagam	95,6	95,5	94,7	32
89	Angilya	95	95	95	33
90	Kuka	95	95	95	33
91	Kosta riko	94,1	94,4	94,7	34
92	Puerto-riko	94,1	94,4	93,9	35
93	Dominka	94	94	94	36
94	Paragvay	94	93	94,9	36
95	Fidji	93,7	91,9	95,9	37
96	Marshallov	93,7	93,7	93,6	37
97	Gongkong	93,5	89,6	96,9	38
98	Portugaliya	93,3	91,3	95,5	39
99	Quvayt	93,3	91	94,4	39
100	Venesuela	93	92,7	93,3	40
101	Kolumbiya	92,8	92,7	92,9	41
102	Malta	92,8	93,6	92	41
103	Brunej-darussalom	92,7	90,2	95,2	42
104	Tailand	92,6	90,5	94,9	43
105	Fillipin	92,6	92,7	92,5	43
106	Singapur	92,5	88,6	96,6	44
107	Palay	92	90	93	45
108	Panama	91,9	91,2	92,5	46
109	Seyshal	91,8	92,3	91,4	47
110	Makao	91,3	87,8	95,3	48
111	Ekvador	91	89,7	92,3	49
112	Meksika	91	89,6	92,4	49
113	Xitoy	90,9	86,5	95,1	50
114	Shri-lanka	90,7	89,1	92,3	51
115	Zimbabve	90,7	87,2	94,2	51
116	Indoneziya	90,4	86,8	94	52
117	Vetnam	90,3	86,9	93,9	53
118	Sent-lyusiya	90,1	90,6	89,5	54
119	Mayanma	89,9	86,4	93,9	55

120	Iordaniya	89,9	84,7	95,1	55
121	Surinam	89,6	87,2	92	56
122	Mikroneziya	89	88	91	57
123	Qatar	89	88,6	89,1	57
124	Malayziya	88,7	85,4	92	58
125	Braziliya	88,6	88,8	92	59
126	Yamayka	87,9	91,6	84,1	60
127	Peru	87,7	82,1	93,5	61
128	Turkiya	87,4	79,6	95,3	62
129	Livan	87,4	82,2	93,1	62
130	Gvineya	87	80,5	93,4	63
131	Dominika	87	87,2	86,8	63
132	Boliviya	86,7	80,7	93,1	64
133	Baxreyn	86,5	83,6	88,6	65
134	Janubi Afrika	86,4	85,7	87	66
135	Antigua Barbuda	85,8	85,8	85,8	67
136	Keniya	85,1	79,7	90,6	68
137	Namibiya	85	83,5	86,8	69
138	San-tome Prinsipi	84,9	77,9	92,2	70
139	Lesto	84,8	94,5	74,5	71
140	Mavrikiy	84,4	80,5	88,4	72
141	Kongo	83,8	78,4	89,6	73
142	Liviya	82,6	72	92,4	74
143	Svazilend	81,6	80,8	82,6	75
144	Botsvana	81,2	81,8	80,4	76
145	Zambiya	80,6	74,8	86,8	77
146	El-Salvador	80,2	77,7	82,8	78
147	Gibraltar	80	80	80	79
148	Gonduras	80	80,2	79,8	79
149	Suriya	79,6	73,6	86	80
150	Saudiya Arabistoni	78,8	70,8	84,7	81
151	Emirat	77,9	81,7	76,1	82
152	Eron	77	70,4	83,5	83
153	Beliz	76,9	77,1	76,7	84

154	Kabo Verde	76,6	69,2	85,8	85
155	Tunis	74,3	65,3	83,4	86
156	Iroq	74,1	64,2	84,1	87
157	Vanuatu	74	74	74	88
158	Kombodja	73,6	64,1	84,7	89
159	Arab Yegipiti	71,4	59,4	83	90
160	Ruanda	70,4	64,7	76,3	91
161	Aljir	69,9	60,1	79,6	92
162	Tanzaniya	69,4	62,2	77,5	93
163	Gvatemala	69,1	63,3	75,4	94
164	Madagaskar	68,9	62,5	75,5	95
165	Laos	68,7	60,9	77	96
166	Nigeriya	68	60,6	75,7	97
167	Kamerun	67,9	59,8	77	98
168	Jibubti	67,9	58,4	78	98
169	Nikaragua	67,5	67,8	67,2	99
170	Angola	67,4	54,2	82,9	100
171	Uganda	66,8	57,7	76,8	101
172	Gabon	63,2	53,3	73,7	102
173	Malavi	62,7	49,8	76,1	103
174	Sudan	61,1	50,5	71,8	104
175	Hindiston	61	47,8	73,4	105
176	Togo	60,9	46,9	75,4	106
177	Burundi	59,3	52,2	67,3	107
178	Eritreya	58,6	47,6	69,9	108
179	Sharqiy Timor	58,6	58,6	58,6	108
180	Gana	57,9	49,8	66,4	109
181	Liberiya	57,5	41,6	73,3	110
182	Yangi Gvineya(Popu)	57,3	50,9	63,4	111
183	Komor	56,5	49,3	63,6	112
184	Gaiti	52,9	51,2	54,8	113
185	Marokko	52,3	39,6	65,7	114
186	Mavritaniya	51,2	43,4	59,5	115
187	Yaman	50,2	30	70,5	116

188	Uollisi Futuna	50	50	50	117
189	Pokiston	49,9	36	63	118
190	Koddivuar	48,7	38,6	60,8	119
191	Markaziy Osiyo	48,6	33,5	64,8	120
192	Nepal	48,6	34,9	62,7	121
193	Mozambik	47,8	32,7	63,5	122
194	Butan	47	34	60	123
195	Mali	46,4	39,6	53,5	124
196	Bangladesh	43,1	31,8	53,9	125
197	Efiopiya	42,7	35,1	50,3	126
198	Gvineya-Bisau	42,4	27,4	58,1	127
199	Gambiya	40,1	32,8	47,8	128
200	Senegal	39,3	29,2	51,1	129
201	Somali	37,8	25,8	49,7	130
202	Serra-Leone	35,1	24,4	46,9	131
203	Benin	34,7	23,3	47,9	132
204	Gvineya	29,5	18,1	42,6	133
205	Niger	28,7	15,1	42,9	134
206	Afvg'oniston	28,1	12,6	43,1	135
207	Chad	25,7	12,8	40,8	136
208	Burkina Faso	21,8	15,2	29,4	137

Statistik ma'lumotlar va faktlar

Rivojlanayotgan mamlakatlarda 140 milliondan ziyod bola umuman maktabga bormaydi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning qishloq joylarida yashovchi bolalarning 33 foizi maktabga qatnamaydi. 130 million bolaning boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun ta'lim sohasiga 10 yil davomida yiliga qo'shimcha ravishda 7 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritish talab qilinadi. Dunyoda 250 millionga yaqin bola yashash uchun og'ir mehnat bilan shug'ullanishga majburdir.

1.3. Savodxonlikning O'zbekistondagi mezonlari

1960 – 80 yillarda jahon tilshunosligi fani, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida «til – me'yor – nutq munosabatlari o'rganilib, til va nutqni farqlab o'rganadigan yangi

metodikaga asos solindi. Til metodikasidagi tizimiy yaxlitlik ta'lim mazmunini yangilashga qulaylik tug'dirdi».

Til, uning bo'limlari – fonetika, leksikologiya, grammatika tizimiy yaxlitlikda amaliy qo'llanishi, bilim, ko'nikma, malakalarni yaxlit holda shakllantirish bilan birga olib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Fan yutuqlari darsliklarga bevosita kiritilmasdan, amaliyot nuqtai nazaridan olimlar, metodistlar va o'qituvchilar sinovidan o'tkazilib, eng foydali deb topilgan usullargina maktab ta'limiga tatbiq etilishiga alohida e'tibor berilishi zarur.

An'anaviy darsliklarda asosiy e'tibor savodxonligini ta'minlashga qaratildi, shakl va mazmun uyg'unligiga kam e'tibor berildi.

Tizimiy tilshunoslikka asoslangan metodikada esa asosiy e'tibor shakl va mazmun uyg'unligiga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni oshirishga qaratilgan.

Imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- kommunikativ savodxonlik va so'z boyligini oshirish;
- to'g'ri va chiroyli yozish;
- yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish.

Tizimli tilshunoslikka asoslangan ona tili o'qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- so'z boyligini oshirish;
- nutqiy salohiyatni shakllantirish;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish, vazifasini bajarishdek dolzarb masalalar turadi.

Ta'lim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi ruhiy xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, uni mustaqil bartaraf etish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega:

Ta'lim mazmuni yangilanishi til metodikasi oldiga ham dolzarb masalalarni qo'ydi. Shuni hisobga olgan holda Respublika xalq ta'limi vazirligi o'zbek tili doimiy ilmiy-metodik anjumanining birinchi yig'inini chaqirdi. Unda: «Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri,

ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim» ligi ta'kidlab o'tildi⁴

So'zlash, gapirish, yozish, eshitish, o'qish vositasida fikr tushuniladi. Bularning barchasi nutq deyilib, u yozma va og'zaki ko'rinishlarida bo'ladi. Nutqning o'ziga xos vositalari, birliklari, ularni ishlatish qonun-qoidalari va me'yorlari bor.

Ona tilini o'rganishda nutqiy me'yorlarni tarbiyalash va ro'yobga chiqarish, «til-me'yor-nutq» tushunchalarini aniqlab olish zarur.

Til ma'lum bir so'zlar, qo'shimchalar, ularning o'zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun-qoidalar majmui bo'lib, fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish omillarini o'rgatadi.

Me'yor til imkoniyatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari majmui. Uning oliy ko'rinishi milliy adabiy til uslublari, mezonlarida o'z aksini topadi. Milliy adabiy til ma'lum bir uslubiy ko'rinishda yuzaga chiqadi.

Nutq tafakkur mahsuli. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi. Tafakkur qancha rivojlansa, o'quvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Savodxon bo'lish uchun o'quvchi punktuastiya va orfografiya qoidalarini puxta bilmog'i lozim. Chunki savodxon bo'lish uchun o'quvchining fikrlash qobiliyati bilan birga, ko'rish xotirasi, eshitish uquvi, o'ziga yozib ketaverish, va qo'l harakat faoliyati ham taraqqiy etgan bo'lishi shart. I.P.Pavlovning assostiastiya (aloqa, bog'lanish)haqidagi ta'limoti asosida berilgan orfografik bilimlar, odatda, o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtiriladi. Masalan, qaratqich, tushum kelishiklarinish farqini ochish uchun ular orasidagi ma'no assostiastiyasini aniqlash zarur. Bu qiyoslash usuli orqali amalga oshiriladi. Fikrlash faoliyatining asosiy shakllaridan bo'lgan qiyoslash ko'proq turli jadvallar vositasida olib borilsa, o'quvchilar har ikki kelishik qo'shimchasining shakli va ma'nosi yuzasidan to'g'ri tasavvur hosil qiladilar.

O'zbekistonda savodxonlik darajasining oshishiga uzliksiz ta'limni joriy etilishi samara berdi. Uzliksiz ta'lim 7 turni o'z ichiga oladi.

1. Maktabgacha ta'lim
2. Boshlang'ich ta'lim

⁴ A. Jabborov, G. Ne'matova. Ona tili ta'limida kognitiv psixologiya, verbal ta'lim va ijodkor shaxs masalasi//Til va adabiyot ta'limi. 2001. 6-son.

3. Umumiy o'rta ta'lim
4. O'rta maxsus ta'lim
5. Oliy ta'lim
6. Oliy ta'limdan keying ta'lim
7. Qayta tayyorlov

Har bir ta'lim bosqichi o'zidan keying ta'lim bosqichi bilan uzviy bog'langan. Birinchi bosqichni ikkinchi bosqich to'ldiradi. ta'lim oluvchilarning ham savodxonligini bosqichma bosqich, oddiydan murakkabga qarab oshirib boriladi. Maktabgacha ta'limda savodxonlikning daslabki bosqichlari shakllana boshlaydi. Ya'ni, bog'cha yoshidagi bolalarni eng avvalo og'zaki nutqini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog'liqdir. Bola jummalarni mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqot shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishgayo'naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talabni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi sotsial kontaktlarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etadi. Shu paytda bolaning tafakkuri rivojlana boshlaydi va o'g'zaki nutq jarayoni uchun o'zini lug'at boyligini oshirishga harakat qiladi. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 tomoni- miqdor va sifat tomonlari mavjud.

Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V. Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi.

Situation – ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi(nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog'liq. Bu xolat shunda ko'rinadiki, bolaning nutqida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so'zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Bolalarning nosituativ- bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga situatsiyaga bog'liq bo'lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Asta –sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat so'z turkumiga oid so'zlar 11,25% va emotsional xususiyatlarni ko'rsatuvchi so'zlar 5% payda bo'ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe'l turkumidagi so'zlar 6,24% vujudga keladi.

Nosituativ- shaxsiy muloqotda, bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o'zinning fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qiladi. Uning nuqtida umumiy grammatik murakkablashish ro'y beradi. Sifat turkumidagi so'zlar quydagi nisbatda bo'ladi: atributiv (tashqi) xususiyatlarini ifodalovchi- 69,80%, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar- 14,65%, axloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar- 9,3%. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe'llar ancha ko'payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe'llarning 9,76% ni tashkil etadi. Demak ko'rinadiki, insonda daslab og'zaki nutq malakasi shakllanadi. Shu paytda bolaga to'g'ri va ravon fikrlashni o'rgatish kerak.

Boshlang'ich ta'lim .

Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrni mahsulini nutq vaziyatini mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Savod o'rgatish, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.

Savod o'rgatish davri sentabrdan dekabrgacha davom etadi. Savod o'rgatish jarayoni ikki davrni; alifbogacha tayyorlov davri va alifbo (asosiy) davriga ajratiladi. Tayyorlov davri ikki bosqichga bo'linadi:

- 1.Tovush-harf o'rganilmaydigan bosqichi;
- 2.Unli tovushlar va harflar o'rganiladigan bosqichi.

Alifbo davri o'rganiladigan tovush va harflar, so'zlarning va bo'g'inlarning tuzilishi, murakkablik darajasiga ko'ra 3bosqichga bo'linadi.

Bu davrda bolalarning fonematik eshitish qobiliyatlari o'stiriladi, o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari boyitiladi.

Savod o'rgatish darslari o'quvchilarning umumiy kamolatiga, ularda do'stlik, o'rtoqlik kabi xislatlari milliy qadriyatlarni, jamoa ichida o'zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik,

o'qishga ongli munosabatda bo'lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga ko'maklashuvi lozim.

Boshlang'ich ta'limda o'qish va yozishga o'rgatish pedagogika, adabiyotshunoslik va metodika sohasida erishilgan yutuqlarga asoslangan, takomillashgan hozirgi zamon analitik-sintetik tovush metodi vositasida amalga oshiriladi hamda o'quvchilar nutqini rivojlantirishni nazarda tutadi. Darsda o'quvchilar gapniso'zlarga, so'zni bo'ginlarga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytishni o'rganadilar, o'rganilgan tovushlarni o'zaro bog'lab so'z tuzish va o'qish yuzasidan mashq qiladilar.

O'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish baravar olib boriladi. Yozuvda tovushlarni harflar bilan belgilashga, harflar va bo'g'nlardan so'z tuzishga, so'z va gaplarni yozma to'g'ri shakllantirishga, talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni va qisqa gaplarni eshitib yozishga, gapning birinchi so'zini, kishilarning ismini, shahar, qishloq, ko'cha nomlarini, ayrim hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan yozishni o'rganadilar.

1-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1. O'qish san'ati

Miqdoriy ko'rsatkichi: daqiqada 25-30 so'zni o'qish

Fikrni bayon etish: matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish, matn mazmunini ko'rgazmalar vositasida to'liq qayta hikoyalay bilish, tayyor reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalay olish, asar qahramonlarining xatti-harakatlarini aniqlash va baholay olish.

Matn xarakteri: hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish namunalari.

Talablar: so'z tarkibidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a (tekis) o'qish, hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali o'qish, o'qigan asar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish, o'qilgan asar asosida rasm chizish, o'quv yili yakunida 5 ta she'rni yoddan aytib berish.

2-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1. O'qish san'ati

Miqdoriy ko'rsatkichi: daqiqada 40-50 so'zni o'qish.

Talab: hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlarini to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, tuzilishi murakkab bo'g'inli so'zlarni bo'g'inlab, so'ng sidirg'alab ravon o'qish, tuzilishi sodda so'zlarni yaxlit o'qish, asarni janr va mavzusiga ko'ra ajratish, o'qituvchi rahbarligida matnni qismlarga bo'lish va har bir qismga sarlavha o'ylab topish, reja asosida asarni qayta hikoya qilish, asar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish, o'qigan asar yuzasidan bahs, munozara qilish, o'quv yili yakunida 10 ta she'rni yoddan aytib berish.

Matn xarakteri: hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoyat, xalq qo'shiqlarini farqlay olish, she'ri va nasriy asarlar.

2. Fikrni bayon etish mahorati: matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish, badiiy asarga o'qituvchi yordamida reja tuzish, bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini mustaqil o'qiy olish, maktab kutubxonasidagi kitoblardan foydalana bilish, badiiy asar mazmuni asosida o'z fikr mulohazalarini bayon etish.

3-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1. O'qish san'at

Miqdoriy ko'rsatkichi: daqiqada 60-70 ta so'z

Matn xarakteri: : hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsona janriga ko'ra farqlay olish, badiiy asar mazmuniga munosabat bildirish.

2. Fikr bayoni: matndagi so'zlarni ma'nolarini izohlay olish, maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalana olish, asardagi qahramonlar haqida kichik hikoya tuzish, bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini mustaqil ravishda tanlab o'qiy olish

Talablar: ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo'shiqlari, qissalardan parchalarni to'g'ri, ongli, ifodali, sidirg'a o'qish, o'qilgan badiiy asarga reja tuzish, asar mazmunini qayta hikoyalashda o'xshatish, asar mazmunini qisqartirib qata hikoyalash, o'qigan asar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini erkin bildirish, o'quv yili yakunida 15 ta she'rni yoddan ifodali o'qiy olish, mustaqil o'qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlay bilish va ifodali o'qish, o'qilgan asar asosida kichik sahnalar qo'yish.

4-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

O'qish san'ati:

Miqdoriy ko'rsatkichi: daqiqada 80-90 ta so'z o'qish

Matn xarakteri: ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo'shiqlari, rivoyat, hikoyat, masal, latifa, lof, ibora, afsona haqida tushuncha, badiiy asar mazmunini mustaqil tahlil qilish.

Talab: ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo'shiqlari, rivoyat, hikoyat, masal, latifa, lof, ibora, afsona, doston va qissalardan parchalarni to'g'ri, ongli, ifodali, sidirg'a o'qish, badiiy asarga mustaqil reja tuzish, matn mazmunini reja asosida to'liq yoki qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash, asar qahramonlarini xatti-harakatini baholash va o'zining shaxsiy munosabatini bildirish, mustaqil o'qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlash va ifodali o'qib, so'zlab berish, asar asosida bahs-munozara, mushoira qilish, o'qilgan asar asosida kichik sahna ko'rinishlarida faol qatnashish, o'quv yili yakunida 20 ta she'rni yoddan aytib berish.

Umumiy o'rta ta'lim.

1. O'qish san'ati.

Miqdoriy ko'rsatkich: daqiqada 100-110 ta so'z o'qiy olish.

Talab: orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qish.

Matnning xarakteri: Til jihatdan ravon, nasriy, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalari.

2. Fikrni bayon etish mahorati:

Miqdoriy ko'rsatkich: 13-15 gapdan iborat bo'lgan matn (fikir ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar: Boshlang'ich talim bo'g'inini bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarga quyidagilar qo'shiladi:

1) badiiy tasvir vositalaridan foydalanish; omonimlardan, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlardan amaliy foydalanish.

2) o'quvchi mustaqil o'zi mavzu rejasini tuza olishi va uni izohlash.

Matnning xarakteri: murakkab manbalar (uy, shahar, qishloq, va hokazolar), tabiat manzarasi (bog', sahro, dala, o'rmon, tog' va hokazolar), o'qilgan asarlar, kinofilmlar, spektakl kabilardan olingan taassurotlar.

II. Nazariy bilimlar.

Fonetika, imlo, tog'ri talaffuz va tinish belgilari bo'yicha:

1. Nutq tovushlari. Nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farqi. Nutq organlari. Unli va undoshlarning hosil bo'lishi va talaffuzi, imlo xususiyatlari. O'zbek tilining unli va undoshlari tizimi.

Undoshlarning hosil bo'lish o'rinlari. Tovush (harf)ning ma'no farqlash vazifasi.

h,y,v undoshlarining o'zidan oldingi unlilar talaffuziga ta'siri; yonma-yon kelgan unlilarning imlosi va talaffuz me'yorlari.

2. Yozma nutq va og'zaki nutq. Imlo va talaffuz. Adabiy talaffuzning sheva talaffuziga munosabati.

O'zbek tili imlosining fonetik, tarixiy va an'anaviy omillari. Morfologik omilga tayanib yoziladigan asosiy qo'shimchalar.

Q bilan boshlanuvchi qo'shimchalarning imlosi va talaffuzi.

3. Unli va undoshlarni cho'zib talaffuz qilish, ularning imlosi va uslubiy vazifasi.

Leksikologiya va leksikografiya bo'yicha:

So'z, uning tuzilishiga ko'ra turlari: tub, yasama, qo'shma, juft va takroriy so'zlar. Juft va takroriy so'zlarning imlosi va umumiy ma'nolari.

So'zning ma'nolari: bosh ma'no, uning borliqdagi narsa, belgi, xususiyat, harakatlarga munosabati. Ko'chma ma'nolar, ularning hosil bo'lish yo'llari.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zlarning qo'llanish doirasiga ko'ra turlari.

So'zlararo shakliy va ma'noviy munosabatlar, shakldosh so'zlar, ulardan foydalanish o'rinlari.

Ma'nodosh so'zlar, ular orasidagi ma'noviy-uslubiy farqlar.

Uyadosh so'zlar inson so'z boyfigtni oshirishning asosiy vositasi sifatida.

Iboralar. Iboralarning so'zlardan farqi. Iboralarda ta'sirchanlik va obraziilik. So'z – ibora ma'nodoshligi.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar va chegaralangan so'zlar (eskirgan so'zlar, shevaga xos so'zlar, atamalar), ularning qo'llanilish o'rinlari va badiiy uslubdagi ahamiyati.

Olinmalar, olinmalarining manbalariga ko'ra turlari. O'zbek tilida fors-tojikcha, arabcha olinmalarining ahamiyati. So'z matn tarkibida. Matnda ayni bir so'zni omonimlar, ma'nodoshlar, uyadoshlar, iboralar, tasviriy ifodalar, atamalar, eskirgan so'zlar, shevaga xos so'zlar, olinmalar bilan almashtirish yo'llari. Buning badiiy uslubdagi ahamiyati. Til lug'at boyligi va uning o'zgaruvchanligi.

Lug'atlar, ularning turlari, lug'atlarda so'zlarning joylashish tartibi. Imlo lug'ati, uning maqsadi va lug'atdan foydalanish tartibi. Izohli lug'at va undan foydalanish tartibi. Ma'nodosh so'zlar lug'ati, undan foydalanish tartibi. Soha atamaları lug'atlari, ulardan foydalanish tartibi.

6-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar:

1. O'qish san'ati bo'yicha: Bir daqiqada 110-120 ta so'zdan iborat publitsistik yoki badiiy matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qish.

2. Fikrni bayon etish mahorati:

Miqdoriy ko'rsatkich: 16-17 gapdan iborat bo'lgan matn (fikir ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar: 5-sinf talablariga quyidagilar qo'shiladi:

iboralar, hikmatli so'zlar, maqollardan foydalana olish;

o'rganilgan ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish.

Matnning xarakteri: insho, bayon, kichik maqola, xabar, xatlar, tavsifnoma, tarjimai hol, o'rin-joy tasviri, murakkab xabarlar.

3. Nazariy bilimlar. Fe'l, ot, sifat, son, ravish so'zlarning ichki ma'noviy guruhlarini, ularning imlo va talaffuzini bilish. Fe'l, ot, sifat, son, ravishlarning shakllarini, ularning imlo va talaffuzini, ma'no xususiyatlarini bilish. Bu so'zlarning gapdagi vazifalarini aniqlay olish.

7-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar:

O'qish san'ati.

Miqdoriy ko'rsatkich: 120-130 ta so'z.

Talab: murakkab tipdagi ilmiy atamalar, mumtoz adabiyot namunalari mazmunini anglab, to'g'ri o'qish.

Fikrni bayon etish malakasi.

Miqdoriy ko'rsatkich: 18-19 gapdan iborat bo'lgan matn (fikrlash ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar: 7-sinfda ona tilining izchil kursidan o'rganilgan grammatik va til qurilishiga oid nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llay olish, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

Matnning xarakteri: voqea-hodisa tasviri, ishlab chiqarish jarayoni, badiiy asarlardan taassurotlar v. h., ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, ishonch xati, vakolatnoma, ixcham hisobot, axborot va hokazolar) yoza olish.

3. Nazariy bilimlar: Olmoshlarning ma'noviy guruhlarini aniqlay olish, har bir ma'noviy guruh so'zlarining vazifasi, tuzilishi va yasalishi haqida ma'lumotga ega bo'lish. Yordamchi so'zlarning turlarini aniqlay olish; sof ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar, yarim ko'makchilarni, ularning imlosi va qo'llanishini bilish; kesim, fe'l kesim, bog'lama haqida ma'lumotlarga ega bo'lish. Aloqa-munosabat shakllari, ularning turlari va vazifalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish. So'zlarning egalik va kelishik shakllari, ularning imlosi, talaffuzi va qo'llanishini bilish. Ot kesim va fe'l kesim shakllarini aniqlay olish.

Nutqda so'z va so'z shakllari ma'nosining nutqiy kengayishi va torayishi haqida ma'lumotga ega bo'lish.

8-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1. O'qish san'ati bo'yicha: barmoq vaznida yozillgan she'rni ifodali (taktlarga ajratib) o'qiy olish. She'rninlg vazn va ohangiga rioya qilish.

Fikrni bayon etish mahorati bo'yicha:

Bu sinfda baho me'yorlari va o'lchamlari matnning mavzu doirasidalgi mantiqiy izchillilgi, fikrning tugallilgi, maqsadga muvofiqlilgi, ona tili ifoda vositalaridan foydalana olish malakalari, uslub talablarilga rioya qilinishi, matnda imloviy va uslubiy savodxonlik darajasi, o'quvchining mustaqil fikrlay olish ko'nikmalari bilan belgilanadi. Jumladan, uslubiyatdan quyidagilarga alohida etibor beriladi:

Nutq shaklini, mazmunini va vositalarini nutq sharoitiga mos holda tanlay olish. Ayni bir mazmunni turli nutq sharoitlarida, turli shakllarda bera olish.

Nutq uslublari. Jumladan, ilmiy va badiiy tasvir uslublaridan, ularning vositalaridan to'g'ri foydalana olish.

Rasmiy ish uslubi xususiyatlari bilan tanish bo'lish. Oddiy ish qog'ozlarini erkin, mustaqil tuza olish.

Sinonimik, tasviriy vositalardan o'rinli foydalana olish ko'nikma va malakalari.

Matnning xarakteri: murakkab ish qog'ozlari (berilgan mavzu buyicha majlis bayonnomasi, arizaga javob, guvohlik ko'rsatmasi, bayonnomadan ko'chirma va hokazolar)ni yaratish, ayni bir narsa (voqea-hodisa, axborot va h.k.)ning ilmiy hamda badiiy tasvirini berish, hikoya, har xil insholar, turli uslubga xos matnlar.

2. Nazariy bilimlar bo'yicha: sozlarning sintaktik munosabatiga kirishish yo'llari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv. So'z birikmalarida hokim so'z va tobe so'z. So'z birikmasi bilan so'z, ibora, gap orasida farq haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Sodda gap, uning egali va egasiz turlari, ifodalanlgan egali va yashiringan egali gaplar, egasiz gaplarning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Gap bo'laklari, ularning bo'laklarga ajratish asoslari; kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchilarning turlari va so'z, so'z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalana olishi haqida ma'lumotga ega bo'lish. Ajratilgan va uyushiq bo'laklar, kiritmalar, ularning turlari, vazifalari, ifodalanishi haqida tasavvurga ega bo'lish, so'z qo'shilmalari imlosi, talaffuzi (ohangi) qoidalarini bilish. Ot-kesim va fe'l –kesim shakllarini aniqlay olish.

So'z -gaplar, ularning turlari va vazifalari, so'z-gaplarning mustaqil va sodda gap tarkibida qo'llanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish; so'z –gaplar imlosi, ularda ohang (tinish belgilari).

9-sinf bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1.O'qish san'ati bo'yicha: aruz vaznida yozilgan mumtoz nazm namunalarini ruknlarga ajratib o'qiy olish.

Fikrni bayon etish mahorati bo'yicha:

Bu sinfda asosiy ko'rsatkich fikrni mantiqiy izchillikda, ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to'g'ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo'yicha o'quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnning imloviy (talaffuziy), uslubiy savodlilik darajasi bilan belgilanadi.

Matnning xarakteri: ilmiy (tarix, geografiya, biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarga oid), ilmiy-adabiy (badiiy asar, uning uslubiy tahlili, yozuvchi ijodi, obrazlar tavsifi va hokazolar), adabiy-ijodiy (adabiy asar, kinofilm, spektakllar haqida shaxsiy taassurot va mulohaza) insholar va ramziy tavsiflar yozish. Kengaygan birikmalar (oborotlar)ni gaplar bilan, gaplarni bunday oborotlar bilan almashtira olish.

3. Nazariy bilimlar bo'yicha:

a) ona tili qurilishi bo'yicha: qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifini bilish, qo'shma gan tarkibida bosh va tobe gaplarni ajrata olish.

Matndan murakkab qo'shma gaplar, ularni o'zaro bog'lovshi vositalarni ajrata olish.

Ohang. Uning ma'no ifodalash vazifasi. Gap tugallanganligi ohangi. Xabar, so'roq, buyruq, his-hayajon ohanglari.

Nuqta, so'roq, undov belgisining qo'llanishi.

Gapning ichki ohangi. Takt (rukn, sintagma). Aruz vaznidagi mumtoz she'riy asarlarni ifodali o'qishda vazn va ruknning ahamiyatini anglash.

Qo'shma gap tarkibiy qismlarini bir-biriga bog'lash, ajratish ohanglari. Vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tirening ishlatilishi.

Sanash ohangi. Uyushiq bo'laklar talaffuzi va ularning yozilishi.

Ajratish ohangi. Kirish, kiritma va ajratilgan bo'laklarning yozilishi va talaffuzi. Ularda vergul, qavs va tirening qo'llanishi.

Ko'chirma gapli qurilmalar talaffuzi va ularning yozilishi.

Til haqida umumiy ma'lumot. Dunyo tillari, tillarning bir- biriga ta'siri. Til va jamiyat. Dunyo tillari orasida o'zbek tili.

2. ISTIQLOL YILLARIDA TIL SIYOSATI

2.1 O'zbekistonda ona tili ta'limidagi islohotlar

O'zbek xalqi o'zining shonli va shuhratli tarixiga ega. Shonli va shuhratli tarixida qanchadan-qancha buyuk olim va ilm ahlining beshigini tebratib kelgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning respublika rahbari sifatidagi faoliyati barcha muammo va muhokamalarni xalqimizning manfaatiga bog'lagan holda yondashish, ma'muriy-buyuruqbozlik natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish, bir so'z bilan aytganda, hayotning barcha jabhalarida islohotlar o'tkazishga qaratilgan. Muhtaram yurtboshimiz eng avvalo ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratdi.

Mustbid tizim muammaolari tarkibida: hukumron kommunistik mafkura davlati kuchining saqlanishi; keng tarqalgan qo'rquv va vahima; "Paxta ishi" degan tuhmat bilan tazyiq, ta'qib, nohaq qamalishlar; xalqning ruhiy tushkunligi; bir millionga yaqin ishsizning mavjudligi; aholi 45 foizi (9million kishining daromadi kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng past darajadan (jon boshiga oyiga 75 so'm) ham pastligi; ijtimoiy infratuzilma muassasalari-maktab va kasalxona binolari 60 foizi nobopligi; yurtimizda 1700 ta maktab avariya holatida ekani; qurilayotgan maktablar soni esa aholining ko'payish su'ratini arang qondirishi kabi o'ta jiddiy masalalarni keltirishimiz mumkin. 80-yillarning ikkinchi yarmida xalq ta'limi, oily ta'lim tizimida ham sustkashlik, foizbozlik illatlari chuqur ildiz otib, milliy jihatlar inobatga olinmas edi. Manbalarga ko'ra, 1987-yilning sentabrida respublikadagi jami maktablarning 5596 tasi (72,1 foizi) ikki smenada; 23 tasi hatto uch smenada ishlar edi. 1178,7 ming o'quvchi ikkinchi smenda o'qir edi. 50 foiz maktab ta'lim-tarbiya muassasalariga mos bo'lmagan binolarda joylashgan edi. Ularda 1204 ming o'quvchi bor edi. Faqat 2812 (40 foiz) ta maktabda moslangan sport zallari, 22 tasi suzish basseyni, 1934(25 foiz) tasida sport turi mavjud edi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,2 foiz, Navoiy viloyatida 25 foiz, Jizzax viloyatida 27 foiz, Qashqadaryo viloyatida 26,3 foiz, Samarqand viloyatida 21 foiz, Surxondaryo viloyatida 28 foiz maktab moslangan sport zallariga ega edi xolos. Qishloqlardagi 6273 maktabdan atigi 977 tasi (15,5 foiz) o'z tajriba xo'jaligiga ega edi.

80-yillarning ohirida respublikadagi maktablarning 700 ga yaqini tezlik bilan ta'minlanishiga muhtoj holatda edi. Xalq ta'limini mablag' bilan ta'minlashning "qoldiq" tamoyili hali ham davom etayotgan edi. Respublikamizda tug'ilish ko'p bo'lgan holda , maktablar, ularning o'quv-

moddiy bazasi yetishmas edi. Maktablarning o'qituvchi bilan ta'minlanishi ham yetarli emas edi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimiz tomonidan yurtimizda amalga oshirilgan barcha keng miqyosli ishlar BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari keng ko'lamda bajarilishini ta'minladi. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o'n ikki yillik yaxlit majburiy uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli oshirishga, kadrlarning yuksak darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlodini tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rish imkonini berdi. Mamlakatimizda umumiy va o'rta maxsus ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. 7-15 yoshdagi bolalarning boshlang'ich va umumiy ta'limga qamrab olinishi, shuningdek aholining savodxonlik darajasi bugungi kunda deyarli yuz foizni tashkil etadi. Bu esa BMTning boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish sohasidagi Mingyillik rivojlanish maqsadlarining O'zbekiston tomonidan yetakchi davlatlar qatorida bajarilayotganini to'la tasdiqlaydi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas-tuganmas boy bisotini namoyish etish omili bo'ldi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining leksik qatlamida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi: «eskirgan so'z» tamg'asi bosilgan ko'plab leksikonlar o'z lisoniy maqomiga ega bo'ldi, xalq tili bisotida qolib kelayotgan minglab so'zlar adabiy til sathida faollashdi, yangi so'zlar yasaldi, fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid ko'plab yangi so'zlar tilimizga kirib keldi; ish yuritish o'zbek tiliga ko'chdi, atamashunoslik qo'mitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir fanniy lug'atlar tayyorlandi.

Ta'lim maqsadi haqida gapirganda ta'limning umumiy va har bir o'quv fanining xususiy maqsadi tushunchalarini farqlamoq lozim. Har bir o'quv fanining xususiy maqsadi ta'lim umumiy maqsadi bilan o'zaro bog'lanadi. Muayyan o'quv fani ta'limining maqsadi ham o'z tizimida umumiylik va xususiylik xarakteriga ega bo'ladi. Quyida ona tili o'quv fani ta'limi uning umumiy va xususiy maqsadining tadrijiy tarqiyoti hamda bu jarayonda uning umumiy va xususiy maqsadlari qanday belgilanganligi xususida mulohaza yuritiladi.

Sho'ro davridagi "O'zbekistonda ona tili ta'limi faqat Oktabr revolyutsiyasidan keyingina yo'lga qo'yildi"⁵ degan fikr munozarali bo'lib, bu borada "ona tili ta'limi" va "ona tilini maxsus o'quv fani sifatida o'qitish" tushunchalarini farqlash zarur. Ona tilida ta'lim olish jarayonida ona

⁵ Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. T.: O'rta va oliy maktab, 1960

tili ham o'qitiladi, chunki bunday holatda ona tili va ta'lim tili tushunchalari bir-biriga mos keladi. Shundan kelib chiqib, ona tili ta'limining xat-savod o'rgatish, fikrni uqish va bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish kabi umumiy va uni maxsus-alohida bir o'quv predmeti sifatidagi ta'limini talab etuvchi xususiy maqsadi farqlanadi. "Ona tilida ta'lim" va "ona tili ta'limi" sharoitlarida ona tili ta'limining xususiy maqsadi davr talablari bilan belgilab boriladi va ijtimoiy zarurat asosida muntazam rivojlanib, ierarxik ravishda ko'tariladi. Bu dialektik inkor tabiatiga ega bo'lib, har bir keingi bosqichni ham o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Ta'limning umumiy maqsad vazifalari, avvalo, unga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadi. Ta'lim oldiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmaga ko'ra aniqlangan ta'lim maqsadi asosida esa har bir o'quv fanining xususiy maqsad va vazifalari belgilanadi. Ta'limning muayyan o'quv fani haqida gap ketganda bu o'quv fanining umumiy va xususiy maqsadlarini aniq belgilash hamda chegaralash bilan birga, mazkur o'quv fanining ta'lim tizimida maxsus o'qish-o'rganish obyekti tarzida, shuningdek, boshqa o'quv fanlarining ta'limi asosi yoki vositasi ekanligini farqlash zarurati yuzaga keladi. Jumladan, ona(o'zbek) tili ta'limi muassalarida XX asr boshlarigacha maxsus o'quv fani sifatida o'qitilmagan bo'lsa-da, u ta'lim tilining- o'qish- o'qitish jarayonining asosiy kommunikativ vositasi bo'lib kelgan va bu o'quv fani ta'limi oldiga qo'yilgan umumiy maqsad: xat-savodlilikni ta'minlash, ozma bayon shaklida ifodalangan fikrlarni muallif ishtirokisiz o'qiy olish, shuningdek, o'z fikrlarini yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, aniq hamda bayon maqsadiga mos ravishda (badiiy, ilmiy, suhbat va hakazo uslublarda) ifodalay olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish voqelangan.

Islalgan o'quv predmetining maqsadi ijtimoiy buyurtma- jamiyat taraqqiyoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, hayotiy shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, davrlar bo'yicha o'zgaruvchidir. Jumladan, XXI asr boshlarigacha bo'lgan (ona tili) ta'limining umumiy maqsadida quydagi tadrijiy taraqqiyotni ko'rish mumkin.

1. V-IX asrlar. Ona tili ta'limining maqsadi: " Xat-savodli turkona tabiatli shaxsni tarbiyalash". Shunday fikrlarga kelishimizga qadimgi turkiy yodgorliklar bilvosita asos bo'ldi.
2. IX-XIX asrlar (jadidlargacha). Ona tili ta'limining maqsadi: "Xat-savodli, itoatkor(passiv) mo'min-musulmonni tarbiyalash". Shunday fikrga kelishimizga IX-XIX asr maktab didaktik adabiyoti va o'quv qo'llanmalari bilvosita va bevosita asos bo'ldi.⁶
3. XX asr boshlari (jadidchilikda). Ona tili ta'limining maqsadi: Zamonaviy ilmiy bilim asoslari bilan tanishgan, milliy tuyg'ularga ega bo'lgan xat-savodli (faol) musulmonni

⁶ A. Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: Ma'naviyat, 1997. 41-bet

tarbiyalash. Shunday fikrga kelishimizga jadidlar tomonidan aratilgan darsliklar sabab bo'lgan.

4. 1925-1970-yillar. Ona tili ta'limining maqsadi: adabiy me'yorlarni singdirish, milliy adabiy tilni ommalashtirish, rasmiy yozma/og'zaki nutqda sheva nutqidan foydalanishga chek qo'yish. Shunday fikrga kelishimizga 1925-1970-yillardagi ona tilidan o'quv dasturlari bevosita asos bo'ldi.
5. 1970-1990-yillar. Ona tili ta'limining maqsadi: milliy adbiy tilda yozma/og'zaki nutqni rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish. Shunday fikrga kelishga 1970-1988-yillarda O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan nash etilgan dasturlar bevosita asos bo'ldi.
6. 1999-yildan hozirgi kungacha. Ona tili ta'limining maqsadi: ta'lim oluvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkur mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish. Shunday fikrga kelishimizga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning DTSlarining tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori asosida tuzilgan dastur va darsliklar bevosita asos bo'ldi.

Ona tili ta'limi bugungi kundagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, ona tili ta'limida bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. Tilimiz taraqqiyoti bilan bog'liq ushbu o'zgarishlar, islohotlar imlo lug'atida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1995 yil 24 avgustdagi 339 – son** qarori o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlashga bag'ishlandi. Bu hukumatning «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunini bajarish maqsadida qilingan qaror edi.

Lotin alifbosiga o'tish tufayli imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag'ishlangan qism qayta yozildi, unda qaysi harf qaysi tovushni ko'rsatishi to'liq aks ettirildi. Lotin alifbosiga o'tish munosabati bilan kirill alifbosidagi yo, yu, ya harflari, ayrim belgilaridan voz kechildi, ammo bunday harf va belgi qatnashadigan so'zni, lotin alifbosiga o'tgach, qanday yozish kerakligi imlo qoidalarida ta'kidlanmadi. Chunki bunday so'zlarning to'g'ri yozilishi avvalo imlo lug'atida o'z aksini topgan va alifboni o'rganish maqsadida yaratilgan o'quv qo'llanmasida bayon qilingan.

Kirill yozuvidagi imlo qoidalariga ko'ra juft so'zlar qismlari orasida –u (-yu) bog'lovchisi kelsa, kechayu kunduz, nonu tuz shaklida qo'shib yoziladi. Yangi imlo qoidalariga

ko`ra –u (-yu) bog`lovchilaridan oldin chiziqcha qo`yiladi va juft so`z qismlari ajratib yoziladi: do`st-u dushman, non-u tuz kabi.

Kirill yozuvidagi imlo qoidasiga ko`ra yil, oyni ko`rsatib kelgan arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan keyin chiziqcha qo`yilmay yoziladi.

Lotin yozuvidagi imlo qoidalarida esa tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -inchi qo`shimchasi o`rnida hamma vaqt chiziqcha (-) qo`yilishi belgilab qo`yilgan. Masalan: 2007- yil, 20-noyabr kabi.

Lotin yozuviga asoslangan o`zbek tilining asosiy imlo qoidalari quyidagilardan iborat:

Harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi (takror undoshlar imlosi)

1. Asos va qo`shimchalar imlosi.

2. Qo`shib yozish.

3. Chiziqcha bilan yozish.

4. Ajratib yozish.

5. Bosh harflar imlosi

6. Ko`chirish qoidalari

Imlo quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. Fonetik yozuv. So`z va qo`shimchalar qanday aytilsa, shunday yoziladi: yoz, o`qi, lug`at, senda, buloqqa, og`iz-og`zi, yosh-yasha, sana-sanoq kabi.

2. Morfologik yozuv. So`z va qo`shimchalar talaffuzga qarab emas, qabul qilingan qoidalar asosida yoziladi. Masalan: tussiz emas, tuzsiz; ketti emas, ketdi kabi.

3. Shakliy yozuv. Boshqa tillardan kirgan so`zlar qanday yozilgan bo`lsa, shu shakl saqlanadi. Masalan: ustol emas, stol; tanka emas, tank; tiatr emas, teatr; sollot emas soldat kabi.

O`quvchilarga shu qoidalar asosida unlilar, undoshlar, asos va qo`shimchalar imlosini batafsil tushuntirish kerak.⁷

Ularda quyidagi hollarda ko`plab xatolar uchraydi:

1. Takror undoshlar imlosida harfiy xatolar. Bu hol mazmunga ta'sir qilishi uqtirilishi lozim. Masalan: qattiq-qattiq, essiz-esiz, tilla-tila kabi.

2. O`zak va qo`shimchalar imlosi. Bunda o`zakka qo`shimcha qo`shish bilan yuz beradigan tovush o`zgarishlari o`quvchilar ongiga singdirilsa, xatolar oldi olinadi. Masalan:

a) tovush almashishi: qishla+v- qishlov, o`qi+v-o`quv;

b) tovush tushishi: shaharim-shahrim, ulug`+ay-ulg`ay. Past+ay-pasay;

v) tovush ortishi: u+ga-unga, shu+day-shunday, bu+da-bunda

Qo`shma so`zlar imlosida qo`shib yoziladigan so`zlar borasidagi quyidagi ma'lumotlar o`quvchilarga uqtirilishi zarur:

1. Ikki yoki uch so`z qo`shilib, yangi bir ma'no ifodalasa, qo`shib yoziladi: Oltiariq, Buloqboshi kabi.

2. Qo`shma fe'llarning ikki turi qo`shib yoziladi. M: a) ayta oldim – aytaoldim; b) ishlay beramiz – ishlayveramiz.

3. Xona, noma, poya, ham, sifat, umum kabi so`zlar bilan yasalgan qo`shma ot va sifatlar qo`shib yoziladi: ishxona, bedapoya, hamkor, ma'lumotnoma, devsifat, umummillat.

4. – (a)r, – mas qo`shimchasi yordamida yasalgan qo`shma sifatlar qo`shib yoziladi: ishyoqmas, otboqar kabi.

Qo`shma so`zlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

1. Qo`shma so`zlarning qismlari bir-birini izohlasa: tilla soat, temir eshik, til oldi.

2. Qo`shma fe'llar: yozib ol, sir tut.

3. Ham, hech, har, u, bu so`zlari bilan yasalgan ot va ravishlar: har kim, hech qachon, u erda.

4. Sifatlar oldidan to`q, tim, jiqqa kabi so`zlar kelsa: liq to`la, tim qora, jiqqa ho`l.

⁷ O'zbek tilining krill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati: 14 mingdan ortiq so'z. T.: 1999

5. Belgining ortiqlik darajasini ko`rsatuvchi ko`pdan ko`p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq kabi so`zlar.

Shu tariqa qisqartma so`zlar imlosi, bosh harflar imlosi, tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar singdirib borilsa, o`quvchilarning savodxonlik darajasi, yozma nutqi rivojlanib boradi, orfografik xatolarning oldi olinadi. Albatta, muntazam amaliy ishlar olib borish, natijasini o`quvchilar o`rtasida muhokama va tahlil qilib borish talab etiladi.

2.2. Savodxonlikning pasaytiruvchi omillar

O`quvchilarning eng ko`p takrorlaydigan xatolari **shevalar tufayli** sodir bo`ladi. Ma`lumki, o`zbek tili o`zining sheva qatlami jihatidan xilma-xil va juda murakkabdir. O`zbek milliy tili boshqa qardosh turkiy tillarga nisbatan juda sersheva hisoblanadi. Professor V.V.Reshetov tasnifiga ko`ra, o`zbek xalqi qatlamida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi bor: 1) qipchoq; 2) o`g`iz; 3) qarluq-chigal-uyg`ur.

Bu yirik dialektlarning har biri, ayniqsa, qarluq, chigil, uyg`ur lahjasi, o`z navbatida, bir necha ayrim mayda bo`laklarga bo`linadi.

Dialektlar fonetik xususiyatlari jihatidan ota, ona, boradi kabi so`zlarni **ata**, ana, baradi kabi aytuvchi **a-** lovchi shevalar va yer, yel deguvchi **y-** lovchilar hamda djer, djil deb aytuvchi **dj-**lovchi shevalarga bo`linadi. Bu sheva vakillarining barchasi millat jihatdan o`zbekdir. Ana shu dialekt va shevalar respublikamiz hududida (va undan tashqarida) yashovchi o`zbeklar uchun aloqa vositasi (sheva nutqi) bo`lib xizmat qiladi, o`zbek dialektlaridagi mana shu xilma-xillik o`quvchilar nutqiga ta`sir etmay iloji yo`q.

O`zbek xalq shevalaridagi fonetik har xilliklar, ko`p hollarda, o`zbek adabiy tilida so`zlarning orfoepik qoidalar asosida talaffuz etishga mone`lik qiladi. Bu orfoepik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub o`quvchilarning ko`pchiligi so`z boshida adabiy tildagi **y** o`rniga **j** talaffuz qilishadi (*yo`q-jo`q, yigit-jigit*); **u,i**, unlilari bilan boshlangan ayrim so`zlarning oldiga **j** ni qo`shib aytishadi (*uzum-juzum, iliq- jiliq*); so`zning o`rtasida yoki oxirida kelgan **g** tovushini **v** bilan almashtiradi (*to`g`ri-tuvri, tog`-tov*), **p,k**, tovushlarini **b,g**, bilan almashtirib aytishadi (*qop-qab, ko`k-ko`g*) v.h. bu esa o`quvchilarda orfoepik va orfografik savodxonlikni ta`minlashni birmuncha qiyinlashtiradi.

O`zbek dialektlari morfologik jihatdan ham adabiy til me`yorlaridan ma`lum darajada farq qiladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub o`quvchilar tomonidan qaratqich kelishigining qo`shimchasi -ningni -ding, -ting shaklida qo`llash xollariga tez-tez duch kelamiz.

O'zbek dialektlarining leksik jihatdan ham adabiy tildan farq qiladigan ko'p tomonlari borki, ular dialektal xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi do'ppi so'zi Toshkentda to'ppi, Samarqandda qalpoq, Shaxrixonda qalpoq, Buxoroda kalapo'sh, tovoq so'zi esa Toshkentda lagan, Andijonda tovoq, Buxoroda tabaq, Shaxrixonda tavoq shakliga aytiladi.

O'zbek adabiy tilining me'yorlari bilan xalq shevalari o'rtasidagi bunday farqlar ona tili o'qituvchisidan mahalliy dialekt sharoiti va ta'sirining oldini olish yuzasidan doimiy ish olib borishni talab qiladi.

O'qituvchi o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning oldini olish va bartaraf etish uchun qator ish usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning dialektal shakli bilan adabiy – orfoepik shaklini qiyoslash, so'zlarni adabiy til me'yorlariga muvofiq talaffuz etish, o'quvchilar nutqini magnitofon lentasiga yozib olib, qayta eshittirish orqali ularning xatolarini aniqlash va tuzatish, mustaqil ravishda dialektal lug'at tuzish kabi topshiriqlardan foydalansa bo'ladi.

Tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olmasligi. Punktatsiya tinish belgilarini yozuvda to'g'ri qo'llash qoidalarini belgilab beruvchi soha, ya'ni tinish belgilari haqidagi fandir. U matndagi gaplarning urg'usini topishga, so'zlarni gap mazmuniga mos ohangda, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Shu bois, punktatsion qoidalar sintaksisga bog'lab o'rganiladi.

Tinish belgilari tildagi turli-tuman ma'nolarni ifodalashda, turlicha intonatsiyani yozuvda ko'rsatishda xizmat qiladi. Tinish belgilari gap bo'laklari va gaplar orasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni belgilashda, ularni qanday intonatsiya bilan o'qish zarurligini ko'rsatishda katta rol o'ynaydi.

Umuman, tinish belgilari fikrni ifodalashda, o'zgalarga anglatishda, tushunishda, tushuntirishda yordamchi, ammo zaruriy vositadir. Yozuvda gapning ma'nosi, intonatsiyasi mazkur gapda qanday ishora qo'yilganiga qarab belgilanadi.

Punktatsiya (lotincha punktum-nuqta) ning ma'nosi nuqtalar ilmi demakdir, ushbu atama uch ma'noda qo'llaniladi: a) tinish belgilari tizimi va qo'llanish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim; b) punktatsion qonun-qoidalar – me'yorlar yig'indisi, to'plami; v) tinish belgilari v.h.

Tinish belgilari fikrni aniq va tez uqib olishga hamda o'zgalarga uqtirishga yordam beradi.

Hozirgi tinish belgilarini qo'llash asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu davrga qadar bo'lgan qo'lyozmalarda (ma'lumki, ular arab grafikasida yozilgan) hozirgidek

mazmun va shakldagi tinish belgilari qo'llangan emas. Ammo bu qo'lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo'laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlatilgan (Bu haqda H.G'ozievning «O'zbek punktuatsiyasi tarixi» kitobida berilgan).

Tinish belgilarining qo'llanishi masalasi eng murakkab masalalardan biridir. Har bir tinish belgisining qo'llanish o'rni ma'lum bir semantik va grammatik funktsiyaga ko'ra bo'ladi. Tinish belgilari ma'lum grammatik, logik, intonatsiya xususiyatlarga asoslanadi, shu xususiyatlar asosida qo'llanadi.

Shuning uchun ham bu belgilarni o'z o'rnida ishlatmaslik ifodalanmoqchi bo'lgan fikrni qorong'ilashtiradi. uning tez va to'g'ri tushunilishiga xalaqit beradi yoki noto'g'ri tushunilishiga sabab bo'ladi. Mavjud asarlarda tinish belgilarini ishlatishda ko'p xatolar uchraydi. Bunday xatolar asosan ajratilgan bo'laklar. undalma va kirish so'zlar, sodda va qo'shma gapning turli ko'rinishlarida tinish belgilarini ishlatishda uchraydi. Sintaksisni nazariy va amaliy jihatdan puxta bilmay turib, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish malakasini hosil qilish mumkin emas.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinish belgilari quyidagilardan iborat: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...), qavs (), qo'shtirnoq («»), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (-).

Tinish belgilari vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Gaplarni va ularning qismlarini ajratib, bo'lib ko'rsatuvchi belgilar (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul).

2. Ma'lum fikrni xarakterlovchi, izohlovchi belgilar (nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, qavs, qo'shtirnoq).

Birinchi xil belgilar gap yoki gap bo'laklarining o'zaro semantik va grammatik munosabatini ko'rsatadi. Ikkinchi xil belgilar ifodalanayotgan fikrga qo'shimcha ma'no (darak, so'roq ma'nosi, o'zganing nutqi ekani v.b.) beradi; Shu bilan birga, tinish belgilari ma'lum gap yoki uning bo'laklariga qo'shimcha ma'no beradi. Bu hol tinish belgilarining o'rnini ham belgilaydi: birinchi tur belgilar gap o'rtasida, ikkinchilari esa gap oxirida ishlatiladi. Tinish belgilarining bu xususiyatlari og'zaki nutqda ma'lum intonatsiyada (ohangning ko'tarilishi, pasayishi, tempning tezlanishi, sekinlashishi, pauza v.b.) ko'rinadi.

Ma'lumki, nutqimizdagi har bir gap, har bir so'z birikmasi va har bir so'z o'ziga xos intonatsiya bilan bayon etiladi. Bu hol yozuvda biror belgi orqali ifodalashni talab etadi. Masalan, pauza

vergul orqali, hayajon undov belgisi orqali, intonatsion tugallik nuqta, so'roq belgisi orqali ifodalanad

Maktabda tinish belgilari bo'yicha mashg'ulotlar sintaksis bilan qo'shib olib boriladi. Sintaksis bahsidan ma'lum mavzu o'tilar ekan, shu mavzuga oid punktuatsion qoidalar haqida ma'lumot beriladi. Bu jihatdan ko'p tinish belgilarining qoidasi sintaksisdan o'tiladigan ma'lum grammatik qoidalar asosida izohlanadi. Masalan, vergulni ishlatishning butun o'rinlari, ikki nuqta va tireni ishlatishning ayrim o'rinlarini izohlashda gapning sintaktik qurilishini hisobga olish, unga asoslanish zarur. O'quvchi sintaktik qoidalarini qanchalik yaxshi tushunsa, gapni qanchalik to'g'ri sintaktik tahlil qila olsa, tinish belgilarini shunchalik puxta o'rgangan bo'ladi, chunki punktuatsion malakalar sintaktik konstruksiyalarni ongli tushunishdan hosil bo'ladi. Ammo ko'pchilik tinish belgilarining qo'llanishini o'rganishda gapning grammatik qurilishini hisobga olish bilan barobar, o'quvchining diqqatini gapning mazmuniga qaratish ham zarur, chunki bu belgilar gap mazmuni bilan ko'proq aloqadordir.

Har bir tinish belgisining ishlatilishini izohlashda sintaksisga oid asosiy qoida tushuntirilib, bu qoidani o'z o'rnida tinish belgisi bilan bog'lashga, so'ng sintaktik qoidaning eslatmasi izohlanib, tinish belgilarining shu o'rinda qo'llanishidagi variantlar ko'rsatilishiga, ma'lum qoidaga eng avvalo aniq, ravshan, shubhasiz misollar keltirilishiga e'tibor qilish zarur. Bunda: a) sodda qoidalardan murakkab qoidalarga qarab borish zarurligini; b) tushuntirilayotgan qoidalarni avvalo izohlangan va o'xshash qoidalar bilan taqqoslashni unutmaslik zarur.

Punktuatsiya qoidalarini tushuntirishning eng unumli yo'li induksiya metodidir. Bunda misollarni tahlil qilish yo'li bilan ma'lum punktuatsion qoida keltirib chiqariladi. Bundan tashqari, punktuatsion belgining xarakteri va o'quvchilarning saviyasiga ko'ra o'qituvchi ma'lum punktuatsion qoidalarini o'zi tushuntirib berishi, nima sababdan u yoki bu belgining ishlatilishini izohlashi mumkin..

Punktuatsion qoidalarini o'quvchilarga singdirishdagi metodlardan yana biri kuzatish metodi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar berilgan misollarni kuzatish, bir-biriga taqqoslash orqali ma'lum xulosa va qoidalar chiqaradilar (masalan, o'qituvchi doskaga uyushiq bo'lakli va kirish so'zli gap yozadi. O'quvchilar bu ikki xil gapni solishtirish orqali ularning biri uyushiq bo'lakli gap, ikkinchisi esa kirish so'zli gap ekanligini aniqlab, uyushiq bo'laklar bir tomondan, kirish so'zlar esa har ikki tomondan vergul bilan ajratilishi haqida xulosaga keladilar). Bu o'rinda o'quvchilar faktlarni noto'g'ri tahlil etib, noto'g'ri xulosaga kelmasliklari uchun, o'qituvchi nazorat qilib, boshqarib turadi.

Tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga o'rgatishda u yoki bu metodning tanlab olinishi shu tinish belgisining xarakteriga, u bilan bog'liq bo'lgan sintaktik qoidaning mazmuniga bog'liqdir. Ayrim o'rinda induktiv metod yaxshi natija bersa, boshqa bir o'rinda deduktiv metod yaxshi natija beradi, ba'zan esa har ikki metodni qo'llash, analiz va sintezni birgalikda olib borishga to'g'ri keladi. Punktuation qoidalar juda sodda, qisqa bo'lib, ularni quruq yodlatishning foydasi kam bo'ladi. Bundan tashqari, har bir punktuation qoidaning bir nechalab eslatmasi ham bo'ladi. Shuning uchun biror punktuation qoidani o'quvchilarga singdirishda butun sinfning diqqatini bir nuqtaga to'plab, har bir o'quvchining ma'lum mavzu, qoida ustida mustaqil mulohaza yuritishlariga erishmoq zarur. Har bir yangi punktuation qoida va uni mustahkamlash uchun olib boriladigan mashq oldin tanishib o'tilgan punktuation qoidalar bilan qo'shib, bog'lab olib borilishi zarur.

Punktuation qoidalarni tushuntirish va o'quvchilarga singdirishda turli sxemalar, jadvallardan foydalanishning alohida ahamiyati bor. Bu sxemalar punktuation qoidalarni, ularning variantlarini yaqqol ko'rish, tasavvur etish va bir-biriga chog'ishtirishga yordam beradi. Insho yoki diktant o'tkazayotganda, sxemalar olib qo'yiladi. Bu bilan o'quvchi ma'lum matndagi tinish belgilari ustida mustaqil mulohaza qilishga o'rganadi.

O'qituvchi tez-tez punktuation diktantlar o'tkazib turishi, yo'l qo'yilgan xatolarni tasnif qilib chiqishi, asosan diqqatni ana shu xatolarning tugatilishiga qaratishi lozim. Diktant materiallari ayrim-ayrim tanlangan jumalardan ham, mazmunan bog'langan matnlardan ham bo'lishi mumkin. Diktant o'tkazish uchun o'qituvchi materialni tekshirilishi, qaytarilishi lozim bo'lgan bo'limning xarakteriga qarab tanlab oladi: agar ma'lum bir punktuation qoidani qaytarish lozim topilsa, shu qoidaga mos jumlar tanlanadi; agar turli punktuation qoidalarni qaytarish zarur bo'lsa, mazmunan bog'langan matn olinishi maqsadga muvofiqdir. Shuni hisobga olish kerakki, tanlangan matn faqat prozadan bo'lib qolmay, she'riyatdan, dramaturgiyadan ham olinishi zarur.

Tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilish malakalari faqat turli punktuation mashqlar orqali hosil bo'ladi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarga alohida ahamiyat berish, turli-tuman mashq turlarini o'tkazib turish zarur. Tinish belgilariga doir mashg'ulotlarining ko'p va xilma-xil bo'lishi sintaktik qoidalarni o'zlashtirishga hech vaqt salbiy ta'sir qilmaydi, aksincha, bu narsa sintaktis qoidalarining o'quvchilar ongiga yanada mustahkamroq o'rnatishiga, ular nutqining o'sishiga yordam beradi.

Tinish belgilariga doir ko'p tahlillar sintaktik tahlil bilan qo'shib olib boriladi. Sintaktik qoidalarni qaytarish yoki o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida

ma'lum punktuatsion mashqlarni to'la ravishda sintaktik tahlilga bo'ysundirish mumkin. Masalan, uyushiq bo'laklardagi umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishiga doir mashq o'tkazilar ekan, bu umumlashtiruvchi so'zning so'rog'i, vazifasi, qanday so'z turkumi orqali ifodalanganligi bilan bog'lab olib boriladi.

O'qituvchi mashq namunasini ishlab beradi va o'quvchilar mustaqil bajargan ishdagi turli variantlar butun o'quvchilarning muhokamasiga tashlanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning mulohazasini ma'lum tomonga yo'naltirib borishi hamda ish oxirida xulosalashi lozim.

Tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilishga o'quvchilarni o'rgatish sintaktik qoidalarni ular ongiga singdirish va nutq o'stirish bilan chambarchas bog'lanadi. Shuning uchun ham tinish belgilariga doir mashqlar sintaktis qoidalarini o'zlashtirishga ham, adabiyot darsiga ham katta foyda keltiradi.

Puntuatsion malaka hosil qilishda adabiy o'qish va adabiyot darslarining ham roli katta. Nutq o'stirish masalalarining punktuatsiya bilan bog'lanishi yaxshi natijalar beradi. Ma'lum matnni ifodali o'qish uning punktuatsiyasini to'g'ri tushunish asosidagina mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, insho yozdirishda va til-adabiyot to'garaklarida, qo'shimcha darslarda, adabiy kechalar va ilmiy konferentsiyalarda o'qituvchi punktuatsiya masalalariga ahamiyat berib borishi zarur.

Ma'lumki, har bir metodik masala nazariy tekshirish, tajribalarni umumlashtirish va yangi metodlarni sinab ko'rish orqali yuzaga keladi. Shuning uchun ham bir xil ish metodi bilan chegaralanmaslik, grammatik ma'lumot va punktuatsion qoidalarni o'quvchilarga tez, puxta va mukammal singdirishda yangi metodlarni topish, bu metodlarni sinab ko'rish o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak.

Ma'lumki, har bir sintaktik qoida yoki har bir tinish belgisining qo'llanish qoidasi bir-biri bilan bog'langan bir necha qoidalardan iborat bo'ladi (masalan, ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi kabi). Bunda har bir qoida ustida alohida mashqlar o'tkazish zarur. O'quvchi qoidaning bir bandini tushunganiga qanoat hosil qilingach, qoidaning ikkinchi bandiga o'tiladi, qoidaning ikkinchi bandi birinchi bandidagi qoida bilan qiyoslanadi, bog'lanadi va zarur xulosalar chiqariladi. Tinish belgilarining ishlatilishi tushuntirilar ekan, har bir qoidaga misol tanlash, mashqlar uchun bir-biri bilan bog'langan yoki bog'lanmagan matnlar tuzishning katta ahamiyati bor. Tahlil uchun tanlangan matnlar o'tilgan va o'tilayotgan punktuatsion qoidalarni o'z ichiga olishi kerak. Har bir punktuatsion qoidaga avvalo yorqin misollar berilib, keyin butun mashg'ulot bog'langan matnlarga qaratiladi. Bunday matnlar tinish belgilariga boy bo'lishi-

o`tilgan punktuatsion qoidalarni o`z ichiga olgan bo`lishi kerak. Shu bilan birga, tinish belgilariga oid mashqlarda va ularga tanlangan misollarda orfografiya, savodxonlik masalasi hech yoddan ko`tarilmasligi shart.

Asosiy va muhim punktuatsion xatoliklar biror ishorani tushirib qoldirish (ergash gaplar bilan bosh gaplar orasida, ajratilgan bo`laklarda vergul qo`ymaslik, kirish so`z yoki kirish birikmalarni bir tomondangina vergul bilan ajratish kabilar), o`rinsiz ortiqcha ishoralar ishlatib qo`yish (ega va kesim orasida vergul qo`yish, ajratilmagan bo`lakni vergul bilan ajratish kabi), bir ishora o`rniga ikkinchisini qo`llash (uyushiq bo`lakni umumlashtiruvchi so`zdan vergul bilan ajratish. Bog`lovchisiz qo`shma gaplar orasida tire o`rniga ikki nuqta yoki aksincha qo`yish kabilar) o`quvchilarning tipik punktuatsion xatolari bo`lib, o`qituvchi bu xatolarni tugatish borasida muntazam ish olib borishi zarur.

Bu punktuatsion xatolar ma'lum sintaktik qoidalarni puxta o`zlashtirmaslik, binobarin, uni esdan chiqarish yoki bir-biriga o`xshash konstruktsiya, yoxud sintaktik kategoriyalarni bir-biradan farqlay olmaslik sababidan kelib chiqadi.

Punktuatsion xatoliklarni tuzatish sintaktik qoidalarni puxta o`zlashtirishga-gaplarni va ayrim gapni bo`laklarga ajrata bilish, gap va gap bo`laklari orasidagi sintaktik hamda mazmun aloqasini yaxshi bilishga bog`liqdir. Ayniqsa, o`xshash sintaktik kategoriyalarni (undalma va ega, ajratilgan va uyushgan bo`laklar, ergash gap va so`z birikmasi kabilarni) qiyoslash yo`li bilan o`rganishning, grammatik qoidalarni mashqlar orqali qayta-qayta mustahkamlashning muhim ahamiyati bor.

Ma'lumki, ko`pchilik tinish belgisi ma'lum bir intonatsiyaga mos keladi. O`quvchi ifodalangan gapda u yoki bu sintaktik kategoriya mavjudligini (masalan, uyushiq bo`laklarda sanash ohangi, ajratilgan bo`laklarda ohangning ko`tarilishi yoki pasayishi. Gaplar orasida pauza kabilarni) sezib tursin. Bu hol tinish belgilarini ishlatish borasida ma'lum malaka hosil bo`lishiga sabab bo`ladi. Har bir tinish belgisi kelgan o`rinda qanday intonatsiya bo`lishini o`quvchilarga uqtirish uchun alohida og`zaki va yozma mashqlar o`tkazish zarur. Bu narsa nutqni o`stirishga, ifodali o`qish ko`nikmalarini hosil qilishga ham yordam beradi. Zotan, tinish belgilarini to`g`ri ishlata bilishdan asosiy maqsad savodxonlikni ko`tarishgina emas, ifodali nutq malakasini hosil qilish hamdir.

Shuni unutmaslik kerakki, o`quvchidan tinish belgilarini to`g`ri ishlata bilish malakasi og`zaki va yozma mashqlarni muntazam o`tkazib turish, insho va bayon hamda diktantlar o`tkazganda, bu masalaga alohida ahamiyat berib borish orqali vujudga keladi.

Punktuatsion mashqlarni analitik va sintetik xarakterdagi mashqlar turiga ajratish mumkin. Analitik xarakterdagi mashqlarga punktuatsion tahlil (matndagi u yoki bu belgining nima sababdan qo'yilgani yoki qo'yilmaganini o'quvchilarning og'zaki va yozma tushuntirib berishlari, yoddan biror matnni yozish (oldin o'qib o'rganilgan matnning tinish belgilarini o'rniga qo'yib yoddan yozish), sintaktik tahlillar (qo'shma gaplar yoki gapning ayrim bo'laklarni ajrata bilish, zarur o'rinda u yoki bu belgini qo'yib chiqish, qo'yilgan belgini tushuntirib berish) kabi mashqlarni ko'rsatish mumkin.

Sintetik xarakterdagi mashqlar kengroq va murakkabroq bo'lib, ularga tinish belgilarisiz yozilgan matnga zarur tinish belgilarini qo'yib chiqish, ma'lum qoidalarga mustaqil ravishda yoki biror asardan misollar topish, berilgan so'zlar yordami bilan mustaqil ravishda turli sintaktik konstruktsiyalar hamda bog'langan matnlar tuzish, sxema va tablitsalar bilan ishlash, turli xil diktantlar va turli stilistik mashqlar yozish, ma'lum sintaktik va punktuatsion qoidalarni o'z ichiga olgan bayon va insholar yozish, ayrim jumla va bog'langan matnni ifodali o'qish kabilar kiradi.

Tinish belgilarini ishlatish o'rinlari nazariy jihatdan izohlanishigina kifoya qilmaydi, albatta. Har bir qoida bir necha xil mashqlar bilan qayta-qayta mustahkamlangandagina, o'quvchiga singishi mumkin. Bunday ishlar adabiy matnni ifodali o'qish malakasi hosil bo'lishini ta'minlaydi, bu bilan ona tili darslari adabiy o'qish va adabiyot darslarini to'ldiradi.

Tinish belgilarini ko'rgazmali qurollarsiz o'rgatishni tasavvur etish mumkin emas. Bunda o'qituvchi mavjud tinish belgilari jadvallaridan foydalanishi yoki o'zi ana shunday jadvallar tuzishi lozim.

Ma'lumki, dastur va darslikka ko'ra, punktuatsiya masalalari sintaksisga bog'langan holda, qisman boshlang'ich sinflarda, so'ngra VII va VIII sinflarda o'rganiladi. Yuqori sinflarda esa turli yozma ishlar o'tkazilganda, punktuatsion belgilarning ishlatilishi haqida qoidalar o'quvchilarning esiga solinib, mustahkamlanib boriladi.

Tinish belgilarining ishlatilish qoidalarini o'zlashtirish va bu sohada ma'lum bir malaka hosil qilish uzoq vaqt muttasil ish olib borishni talab qiladi. Shuning uchun tinish belgilari ustidagi mashg'ulotni VII sinfdagina o'tishni kutib o'tirmay, bu sohadagi ishni V sinfdan boshlamoq kerak.

Dastur bo'yicha V sinfnining birinchi choragida boshlang'ich sinflarda o'tilgan sintaksis va tinish belgilariga oid ma'lumotlar takrorlanadi. Bu o'rinda gap oxirida ishlatiladigan nuqta, so'roq va undov belgilarining qo'yilishi, uyushiq bo'laklarda vergulning ishlatilishi hamda va,

ammo, lekin, biroq bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilari, shuningdek, ko'chirma gapning muallif gapidan avval va keyin kelganida qo'llanadigan tinish belgilarini qaytarish zarur bo'ladi.

Ma'lumki, sintaksis 7-sinf dan boshlanadi. Shu davrdan boshlab tinish belgilarining ishlatilishi muntazam ravishda o'qitilib boriladi. Sintaksis bobini boshlashda sintaksis haqida umumiy tushuncha beriladi. Gap va uning tuzilishi, gapda fikriy va intonatsion tugallik haqida ma'lumot berib bo'lingandan so'ng, sintaksis bo'limiga punktuatsiyaning qo'shib o'rganilishi, punktuatsiyaning maqsadi, vazifasi, fikrni ifodalashdagi roli haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bu masala ustida tinish belgisining o'zgartirilishi gap ma'nosiga ta'sir etadigan misollar keltirish, ularni tahlil etib berish

mashg'ulotlari o'tkaziladi: Elchiga o'lim, yo'q shafqat. Elchiga o'lim yo'q, shafqat. Birinchi gapda vergul elchining o'ldirilishi, ikkinchi gapda elchiga o'lim yo'qligini anglatyapti.

(O'quvchilarga mustaqil ravishda tinish belgilarining o'zgarishi bilan mazmundagi o'zgarishni izohlab berishni talab etuvchi gaplar berib, mustaqil ravishda ishlashlarini tashkil etish mumkin).

Tinish belgilari qo'yilmagan matnlar o'qitilib, o'quvchilar qiyinligini ko'rib, o'qituvchi matnni o'qish va fikrni tushunishning qiyinligi tinish belgilarining bo'lmasligi sababli ekanligini aytib, tinish belgilari matnni ayrim gaplarga, gaplarni esa ma'lum qismlarga bo'lishda katta xizmat qilishini ko'rsatadi.

Gap mazmunining murakkablashishi gapning ohangi va tinish belgilariga ta'sir etadi. O'quvchilarni gaplarning oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi va ko'p nuqtani to'g'ri ishlata bilishga, fikrni to'g'ri ifodalashga odatlantirish darak, so'roq va undov gaplarni aniq farqlay olishga, ularning mohiyatini, mazmunini va, ayniqsa, grammatik belgilarini to'g'ri tushuntira bilishga bog'liqdir. Buning uchun turli xil amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Tinish belgilari qo'yilmagan matn berib, undagi belgilarni qo'yib ko'chirish topshiriladi.
2. Qo'shma gaplarni sodda gaplarga va sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib yozish, zarur tinish belgilarini qo'yish topshiriladi.
3. Matn ifodali o'qitiladi, tinish belgilarining qo'yilish sababi so'raladi. Berilgan matn ichidan darak, so'roq, undov gaplar alohida-alohida ajratib yozdiriladi.
4. O'quvchilarga qoidaning har bir bandiga mustaqil misollar topish vazifasi topshiriladi.

5. Turli xil yozma ishlar, xususan diktant, insho o'tkaziladi.
6. O'quvchilarga ma'lum bir tinish belgisining qo'yilishiga doir mustaqil ravishda yozma yoki og'zaki misol toptiriladi.
7. Turli uslubiy mashqlar o'tkazish mumkin (chunonchi, biriktiruv yoki boshqa bir xil bog'lovchili uyushiq bo'laklarning bog'lovchilarini zidlov bog'lovchilar bilan almashtirish yoki bog'lovchisiz uyushiq bo'laklarga zidlovchi bog'lovchi qo'shish, mazmunga mos kelgan bog'lovchilar qo'yish, berilgan gaplar tarkibini kengaytirish kabi)

Qo'shma gaplarda qo'llaniladigan tinish belgilarini o'rgatishda quyidagicha amaliy ishlar o'tkazish mumkin:

1. O'quvchilarga mustaqil misol toptirish hamda ma'lum bir gap berib, unga boshqa gap qo'shib, qo'shma gap hosil qilishni va ularni bog'lovchilar orqali bog'lashni, kerakli tinish belgisini qo'yish vazifasini topshirish mumkin.
2. Qo'shma gaplar yozdirilib, zarur o'rinlarga tinish belgilarini qo'yish va izohlashni talab etish mumkin.
3. Tayyor matn berilib, undagi tinish belgilarining qo'yilishini izohlab berishni talab etish mumkin.
4. O'quvchilarga sodda gaplar berilib, ulardan ergash gapli qo'shma gaplar tuzish va zarur o'rinlarga tinish belgilarini qo'yishni talab etish mumkin.

Xullas, tinish belgilarining nima asosda qo'yilishi, qanday printsiplarda ishlatilishi masalasining yolg'iz nazariy ahamiyatigina bo'lmay, bu masalaning katta amaliy, metodik ahamiyati ham bor. Tinish belgilarining qanday asoslarda ishlatilishini aniqlash bu belgilarni ongli ravishda o'zlashtirishga sabab bo'ladi va shu asosda tushuntirish metodi hamda amaliy mashq turlari belgilab chiqiladi.

Tinish belgilari ham ma'lum mazmunni, ma'lum maqsadni ifodalashda qo'llanuvchi vositalardan biridir. Ma'lum o'rinda biror maqsadda ishlatilgan tinish belgisi o'ziga xos intonatsiyaga mos kelishi (ko'proq o'rinlarda) yoki o'ziga xos intonatsiyaga mos bo'lmasligi ham (kamroq o'rinlarda) mumkin. Gapning strukturasiga munosabat jihatdan qaraganimizda, tinish belgilari ko'pincha gapning sintaktik bo'linishi bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham tinish belgilarining intonatsiya va gapning qurilishi bilan munosabati masalasi konkret tinish belgisi bilan, shu belgining konkret qo'llanish o'рни bilan belgilanadi. Bunda bir xil ishoraning

qo'llanishi ko'proq gapning strukturasi bilan bog'lanishini, boshqa bir xil ishoraning ishlatilishi ko'proq mazmunga bog'liq bo'lishini ko'rish mumkin.

Asosiy imlo qoidalarini yodda tutishlari va uni amalda qo'llashlari. Yuqorida ham asosiy imlo qoidalarini haqida keltirib o'tildi. Shunga binoan o'quvchilar hammasi bu haqida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishlari kerak. Unli harflar imlosi, undoshlar imlosi, qo'shib yozish, ajratib yozish va h.

2.3. Tahlil

O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlash uchun eng avvalo eksperiment metodidan foydalanish samarali natija beradi. Chunki ilmiy ishning asosi tahlil natijalariga qarab aniqlanadi. O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlash uchun turli sinflardan nazorat insholarini oldim. Buning natijasida esa o'quvchilarning savodxonlikni qanday nuqtalarida oqsayotganligini aniqlashga harakat qildim, natijalarga ko'ra turli xil sinflarda o'quvchilarning xatolari, fikrlashlari turli darajada ekanligi va teng yoshdagi bolalar esa deyarli o'xshash xatolarni takrorlashlarini ko'rdim.

6-sinf o'quvchilari asosan yo'l qo'yadigan xatolari deyarli bir xil bo'lib, quydagilarni sanashimiz mumkin:

- Fikrlarini bir izchilikda yoritib berishga qiynaladi
- Ayrim so'zlarni qanday hollarda qo'llanishini bilmaydilar. Aslida ular qo'llagan so'z ma'no jihatdan to'g'ri lekin uslubiy stilistik jihatdan noto'g'ri
- Bosh harflar imlosida xatoga yo'l qo'yishgan
- Bo'gin ko'chirish qoidalarini amalda to'g'ri qo'llay olmagan
- Tinish belgilarni qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'ygan
- So'zlarni asosan shevadagi holatida qanday talaffuz qilishsa, shunday yozadilar
- Ayrim o'quvchilar esa og'zaki nutqda ravon fikr bildiradilar, lekin yozma nutqda fikrlarini qiynalibroq bayon qiladilar, yoki buni aksini kuzatishimiz mumkin

7-sinf o'quvchilarida kuzatilgan yutuq va kamchiliklari:

- Fikrlarini teran, izchil bildiradilar, matnda qo'llagan so'zlarini uslubiy stilistik jihatdan to'g'ri qo'llay oladilar
- Bosh harflar imlosida ayrim so'zlarda xatoliklarga yo'l qo'yadilar
- bo'gin ko'chirish qoidalarini buzmaydilar
- "h" va "x" harflarini so'zlarda qo'llashda xatoga yo'l qo'yadilar

9-sinf o'quvchilari fikrlarini mustaqil bildiradilar. Asosan imloviy xatolar va orfografik xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining nazorat ishlaridan olingan natijalarida sinfning 73,07% a'lo bahoga, 23,07% yaxshi, 3,8% o'rta bahoga o'zlashtirganligi aniqlandi. O'quvchilarning yuqori sinfga ko'tarilgan sari ulardagi savodxonlik darajasi yuqorilab boradi. Fikrlashdagi mustaqillik va ravonlik ayniqsa, sezilarli darajada yuqorilaydi. Ulardan savodxonlikni nazorat qiluvchi yozma ish va topshiriqlarni ko'proq olib turish o'quvchilarning malakasini oshirishiga yordam beradi. Shundagina yuqorida sanab o'tilgan xatoliklarga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingach, ijtimoiy hayotda tub o'zgarishlar, jamiyat hayotida keskin burilishlar yuzaga keldi. Garchi 1992 yildayoq «Ta'lim haqida» Qonun qabul qilinganiga qaramay ko'p o'tmasdan uning jamiyatdagi rivojlanishning talab va ehtiyojlariga mos kelmasligi ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun ham 1997 yilda yangi taxrirdagi «Ta'lim haqida»gi Qonun yuzaga keldi. Ushbu qonun ta'lim tizimida yuzaga kelgan yangiliklarning huquqiy asoslarni ko'rsatib berdi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9 - sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning asosiy tamoyillari quyidagicha belgilangan.

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterga ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning majburiyligi; o'rta maxsus kasb - hunar ta'limining, yo'nalishini; akademik litseyda yoki kasb - hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va istidodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish».

Uzluksiz ta'limning yangi tizimi bo'yicha o'quvchilar alohida kollejlarda kasb-hunar egallash bilan birga umumiy o'rta ma'lumotli bo'ladilar, akademik litseylarda esa ,

chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi oladilar. Bunda asosiy e'tibor yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish va uni amalda ifoda eta olishlariga qaratiladi. Fikrini aniq va ravon ifodalash, uni og'zaki va yozma bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish bugunning dolzarb muammolaridan. Savodxonlik bu jamiyat bilan uzviy bog'liq. Jamiyatni rivojlantirish uchun esa albatta, savodxon shaxs kerak. Mamlakatimizdagi savodxonlik darajasi ko'rsatkichlari yomon emas, lekin bu ko'rsatkichlarni yanada balandlatishga harakat qilishimiz kerak.

Ming yillik rivojlanish maqsadlarining ikkinchi yo'nalishi bolalarning boshlang'ich ta'limga to'la jalb etish masalasidir. Hozirda rivojlanayotgan mamlakatlardagi 69 million bolalar umuman maktabga bormaydi. Bu ko'rsatkich jami bolalarning 89 foizini tashkil etadi. Bir qator mamlakatlarda 30 foiz bolalar boshlang'ich maktabni tamomlay olmaydilar. Shuning uchun ham Ming yillik rivojlanish maqsadlarida har bir davlatlardan 8-10 yillik majburiy ta'limni yo'lga qo'yish so'raladi.

Yurtboshimizning Bosh Assambleya yalpi majlisidagi nutqidan, "O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Mamlakatimizda noyob "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" amalga oshirildi, 2009 yildan boshlab 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi." Jahondagi nufuzli tashkilotlar butun kuch-g'ayratlarini sarf etib, katta-katta moliyaviy ko'maklar hisobiga 8 yillik boshlang'ich ta'limni joriy etishni orzu qilayotgan bir paytda O'zbekistonda ming-minglab maktablarda zamonaviy texnologiyalar asosida o'quvchilar saboq olmoqdalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida 9 yillik majburiy o'rta ta'limdan so'ng akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'rta maxsus ma'lumot olishning imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayondan so'ng o'quvchilar iqtidoriga qarab mamlakatimizdagi 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlarida oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa savodxonlikning o'sishiga hamda ta'lim oluvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkur mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga olib keldi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, dunyo sahnasida shu kungacha faqat bilimlilar kuchli sanaladi. Shunday ekan kelajagimiz bilimli yoshlar qo'lida bo'lsagina yurtimiz obod, farovon bo'ladi. Biz yoshlar bugungi kundagi ta'limga berilgan alohida e'tibor va imkoniyatlardan foydalanib bilim salohiyatimizni kuchaytirishimiz kerak. Bu shunchaki, palandparvoz so'zlar emas, balki O'zbekistonning farzandlaridan birining xohishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyoti poydevori.-T., 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat- yengilamas kuch. -T.: Ma`naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlool va taraqqiyot yo`li.- T., 1992.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: O`zbekiston , 2000.
5. Karimov I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O`zbekiston, 2009.
6. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. Toshkent. “Sharq” nashriyot–matbaa konserni, 2010.
7. O`zbekiston Pespublikasining “Ta`lim to`g`risidagi Qonuni”. 1997-y 29-avgust.
8. O`zbek tilining krill va lotin alifbolaridagi imlo lug`ati: 14 mingdan ortiq so`z. T.: Sharq,1999.
9. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o`rgatish. T.: O`rta va oliy maktab, 1960
10. Husanboyeva Q. Adabiy ta`limda mustaqil fikrlashga o`rgatish asoslari. T.: Uzinkomsentr,2003.
11. To`xliyev B., Shamsiyeva M, Ziyadova T. “O`zbek tili o`qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
12. Zunnunov. O`zbek pedagogikasi tarixi. T.: Ma`naviyat, 1997. 41-bet.
13. G`ulomov A., Ne`matov X. Ona tili ta`limining mazmuni. T.: «O`qituvchi». 1995.
14. Швейцер. Современная социолингвистика, теория, проблемы, методы. – М, 1976.
15. Jabborov A., Ne`matova G. Ona tili ta`limida kognitiv psixologiya, verbal ta`lim va ijodkor shaxs masalasi//Til va adabiyot ta`limi. 2001. 6-son.
16. http:/
/www.ziyonet. uz.
17.
<http://uforum.uz>.
18.
<http://el.th.uz>.
19. <http://pedagog.uz>.
20. [www.bilimdon. uz](http://www.bilimdon.uz)
21. www.tatu.
22. www.inter-pedagogika.ru